16. Turgunova, F. (2022). INGLIZ TILIDAGI MAQOLALAR SARLAVHALARINI LEKSIK VA GRAMMATIK JIHATDAN TARJIMA QILISHDA XATOLARNING SABABI (Tarjima xatolarining ta'rifi va tasnifi). ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ.

OZIQ-OVQAT TARKIBIDA SUMBULA O'SIMLIGINING AHAMIYATI

Xolmurodov Bahodir

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali

katta o'qituvchisi

Axmedova Muxlisa Qodir qizi

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali talabasi

E-mail: Muxlisa2023@mail.ru

Abdinazarova Muhlisa

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filiali talabasi

E-mail: muhlisaabdinarova125@gmail.com

Annotatsiya: Ferule Sumbul tarkibida sirka kislotasi betain kelechatka ham uchraydi. Bundan tashqari smolali qismida vanil kislotasi va fitosterol mavjudligi aniqlangan. Alkoloidlar topilmagan uchuvchi oltin gugurt borligi aniqlanmagan. Efir moyi yalpizga o'xshash achchiq tamga ega.

Kalit so'zlar: ferula sumbul, betain kislotasi, fitosterol, alkoloidlar, efir moyi, bronxid, mushk ildizi, ferula moschata.

O'simlik dastlab 1869 - yilda rus olimi Fedshchenko tomonidan Samarqandning janubi-sharqidagi tog'larda yani Zarafshon daryosi bo'yida joylashgan kichik Pentshakent shahrida kashf etilgan.

Shifokorlar tomonidan ko'pincha sumbula bo'g'ilish, bronxid, mushaklarning spazimlari va tinchlantiruvchi dori vositasi sifatida buyuriladi. Albatta sumbul nafaqat asab bilan bog'liq bo'lgan kassaliklarda balki u metiorizmdan tortib ovqat hazm qilish tizimining turli kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Ba'zida to'g'ridan to'g'ri qorin bo'shlig'idagi og'riqni yo'qotish uchun ildizining kukunidan mahalliy vosita tayyorlanadi. Bu spazmlardan og'riqni mukammal darajada kamaytiradi va ovqat hazm qilishni yaxshilaydi. Bundan tashqari u pnevmoniya uchun yaxshi xalq tabobati vositasi bo'lib o'pkani tozalaydi va nafas olishni yaxshilaydi. Olimlar uni turli gripp turlariga qarshi kurashishda samarali ekanligini aniqlashgan va hozirda uni cho'chqa grippi virusiga qarshi kurashda qo'llanganligi aytilmoqda [1].

Bundan tashqari mazkur o'simlik juda kam uchraydigan o'simlik hisoblanadi. Uning sobiq nomi ferula sumbul hisoblanadi. Hozirgi kunda bu o'simlik "ferula moschata" yoki "mushk ildizi", "mush ferula" deb nomlanadi.

Ferula eng kam o'rganilgan dorivor o'simliklardan hisoblanadi. U asosan sharqiy Yevropa, O'zbekiston va Shimoliy va Sharqiy Hindistonda (Nepal va Butan) o'sadi. Bundan tashqari Rossiyaning uzoq shimolida ham uchratish mumkin. U Petrograd orqali Yevropaning qolgan qismiga ham yetib borgan.

Uni birinchi bo'lib Yevropa qit'asida tibbiyotda qo'llashni boshlagan Moskva va Petrograd shifokorlari edi. Sumbula Hindiston, Fors va Sharqning boshqa hududlarida azaldan ishlatilgan [2]. Avvaliga, diniy marosimlar uchun ildizidan turli xil atir va isiriqlar tayyorlangan va shu bilan birga dorivor maqsadlarda ham ishlatilgan.



a)

b)

1-rasm.

Ferula sumbul (1-rasm, a) barglarning shakli uchburchakdir. Gullar murakkab shingillito'p (har bir novdaning oxirida joylashgan). Tashqi ko'rinishida ular arpabodiyonni biroz eslatadi. Vaqt o'tishi bilan ulardan kichik mevalar hosil bo'ladi. Sumbulning o'sishdan to'xtab qurish davridagi holati (1-rasm, b). Ildizlari quritiladi va ovqat hazm qilish uchun yordamchi sifatida foydalanish uchun qayta ishlanadi. Garchi sumbulning ajoyib uyqu dori ekanligi haqida juda ko'p dalillar mavjud. Bundan tashqari, u nafaqat uyqusizlik bilan, balki ortiqcha asabiylashishga ham yordam beradi. Ko'pchilik sumbul preparatlari quritilgan ildiz kukunidan tayyorlanadi. Rangida u bir xil ildizga o'xshaydi, ya'ni kulrang-jigarrang. Mikroskop ostida tekshirilganda juda ko'p jigarrang-qora bo'laklarni ko'rish mumkin [3].

Sumbul ildizni tahlil qilinganda quyidagi natijalar hosil bo'lgan:

namlik	kraxmal	efir moyi	tola	oqsil	dekstrin	kul	saxaroza	smolalar
10,17%	7,70%	1,10%	17,15%	5,50%	1,40%	6,50%	1,64%	17,1%

1.1-jadval

Ta'kidlash joizki, alkaloidlar topilmagan. Uchuvchi moy oltingugurt borligini ko'rsatmagan. Hidi balzamik smolalar bilan bog'liqqa o'xshash bo'lgan. Ulardan

biri spirtda, ikkinchisi esa efirda eriydi. Efir moyi yalpizga o'xshash achchiq ta'mga ega. Ammo quruq distillanganda, u Umbelliferon (Umbelliferon) o'z ichiga olgan mavsumiy moyga aylangan. Xuddi shunday, betain ham topilgan. Bundan tashqari, smolali qismida vanil kislotasi ($C_8H_8O_4$) aniqlangan. Bundan tashqari, fitosterol mavjudligi tan olingan [4].

O'simlikning eng qimmatli qismi ildizidir. Undan turli xil damlamalar va suyuq ekstraktlar tayyorlanadi. Sumbula asab tizimi uchun sitimullashtiruvchi va tonizasiyalashtirivchi vosita hisoblanadi. U asosan asablar bilan bog'liq har qanday muammolar uchun ishlatiladi. Masalan asteniya va asabiy tushkunlikda. Ayniqsa uni asabi charchagan ayollarga tavsiya qiladilar. Bularning barchasi bitta sababga ko'ra: asabiy taranaglikni bartaraf etish va tanaga tonus berishdir. Garchi ba'zi shifokorlar uchun bu uzoq davom etgan kassalikdan keyin tanani tiklash uchun oddiy tonik vosita hisoblanadi [5].

Xulosa: Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, mazkur o'simlik dunyoda kamyob hamda shifobaxsh hisoblanganligi sababli undan nafaqat tibbiyotda balki xalq tabobatida ham keng foydalanib kelmoqdamiz. Shunga ko'ra sumbula o'simligi inson salomatligi uchun foydali bo'lgan o'simlik bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. N.O'ljaboyeva. Xalq tabobati xazinasidan javohirlar. Toshkent, "Yangi asr avlodi" 2009 yil. 1135 bet.
2. S. Muhammad. Tabiat ne'matlarining shifobaxsh xususiyatlari. Toshkent, "Istiqlol", 2007 yil.
3. Ergashev SH. Yuz dardga yuz davo – shifobaxsh giyohlar, tabiiy ne'matlar va turli beozor omillar bilan davolash. Toshkent, "istiqlol", 1999 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 oktyabrsagi PF-6096-son farmoni URL: [http:// https://lex.uz](http://https://lex.uz)
5. Колмаков, Ю.В. Потенциал качества зерна в селекции СибНИИСХ / Ю.В. Колмаков, Л.А. Зелова, И.В. Пахотина, Е.Ю. Игнатъева // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. – 2015. - № 11 (133). – С. 19 – 23.

HOSILANING FIZIKADA QO'LLANILISHI

Yaxshiyev Nu'monjon Asatilloevich - Matematika

Xamrayev Almos Amonovich - Matematika

Aliyev Nu'rjahon To'xtamurod O'g'li - Fizika

+998971278189

ANNOTATSIYA

Respublikamizda matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish, ilmiytadqiqotlarni rivojlantirish va ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy qilishning ustuvor yo'nalishlari etib bir qancha vazifalar e'tirof etilgan. Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional, oliy ta'lim tashkilotlari va ilmiy muassasalar o'rtasidagi yaqin hamkorlikni ta'minlovchi yaxlit tizimni shakllantirish va ta'lim berishning onlayn platformasini yaratish va amaliyotga tatbiq etish, masofadan o'qitish tizimi samaradorligini oshirish, baholash tizimining shaffofligini ta'minlash mexanizmlarini joriy qilish shular jumlasidandir.

Biz matematika ilm-fani va ta'limini yangi sifat bosqichiga olib chiqish uchun amaliy masalalar yordamida nazariy bilimlarni egalash usullarini keng joriy etamiz. Bu uslubda o'qituvchi tomonidan aniq bir amaliy masala qo'yiladi. Bu amaliy masalani yechish jarayonida o'quvchilar qo'llanilishi lozim bo'lgan nazariy matematik bilimlarga duch keladilar. O'quvchilar o'ziga zarur nazariy ma'lumot (formula, teorema, tariflar va hk.)larni o'qituvchining bevosita yoki bilvosita ko'magi bilan egallashga yo'naltiriladi.

Biz na'muna sifatida quyidagi amaliy masalani ko'rib o'tamiz (bu kabi ko'plab namunaviy masalalar Milliy matematika platformasining Sh. Ahmedov sahifasida <http://mathnet.uz/Profile?q=sherdor> berilgan) Masala. V0 hajmga ega bo'lgan silindrik ko'rinishda ochiq idish qurish kerak bo'lsin. Uning materiali d qalinlikka ega.

Ushbu idishni qurishda eng kam material ketishi uchun uning o'lchovlari, ya'ni asosining radiusi va balandligi qanday bo'lishi kerak?

O'qituvchi tomonidan o'quvchilarga masalaning yechimini topishda hajm funksiyasining eng kichik qiymati topilishi zarurligi to'la tushuntirilishi kerak. Funksiyaning eng katta va eng kichik qiymatlarini esa, funksiya hosilasi yordamida tekshirish qoidalarini tushuntirilib, ularga yangi nazariy tushunchalar sifatida tanishtirish lozim. Yechish: Bizga 1-rasmdagi kabi shakl berilgan bo'lsin. Ichki silindr asosining radiusini x , balandligini h orqali belgilaymiz.

U holda ishlatiladigan material hajmi quyidagiga teng bo'ladi: $V = \pi(x + d)^2 h + \pi[(x + d)^2 - x^2]h = \pi d(x + d)^2 + \pi h(2xd + d^2)$

2- tomondan, shartga ko'ra $V_0 = \pi x^2 h$, $h = \frac{V_0}{\pi x^2}$ U holda sarflanadigan material hajmi quyidagi funksiya ko'rinishiga ega bo'ladi: $V = \pi d^2 (x + d)^2 + \pi V_0 \pi x^2 \cdot (2xd + d^2) = \pi d(x + d)^2 + 2V_0 d x + V_0 d^2 x^2$ Bu funksiyaning $x > 0$ ga ekstremumga tekshiramiz. Buning uchun hosila olamiz. $V'(x) = 2\pi d(x + d) - 2V_0 d x + 2V_0 d^2 x^2 = 2d(x + d)(\pi x^3 - V_0) x^3$ $V'(x) = 0 \Rightarrow 2d(x + d)(\pi x^3 - V_0) = 0$ Bu tenglamaning yagona musbat yechimi bor $x = \sqrt[3]{\frac{V_0}{\pi}}$ Endi h ning qiymatini aniqlaymiz.

$$h = \frac{V_0}{\pi x^2} = \frac{V_0}{\pi \sqrt[3]{\frac{V_0}{\pi}}} = \sqrt[3]{\frac{V_0}{\pi}}$$

Demak, $x = h = \sqrt[3]{\frac{V_0}{\pi}}$. Demak, ichki slindrning asosining radiusi uning balandligiga teng bo'lganda sarflanadigan material hajmi eng kam miqdorda bo'ladi.

Bizning xulosamizga ko'ra, bu kabi amaliy masalalar o'quvchining nazariy bilimlarni egallashga undaydi, mantiqiy fikrlashini to'la rivojlantiradi va matematikaning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini tushunib yetadilar. Natijada o'quvchi amaliy masalaning nazariy–matematik asosini tushunib yetadi.

Har qanday funksiyaning hosilasini hosilani hisoblash algoritmi bo'yicha aniqlash har doim ham oson emas va ancha murakkab hisoblashlarni talab etadi. Shu sababli amalda funksiyaning hosilasi quyidagi qoidalarni qo'llash yordamida topiladi. Bu yerda va lar x nuqtada hosilaga ega bo'lgan funksiyalardir. Egri chiziqning nuqtasiga o'tkazilgan normal tenglamasi dan iborat bo'ladi.

Kesmalar mos ravishda urinma osti va normal osti deyiladi. Ularning uzunliklari urinma va normal uzunliklari deyiladi. Agar $()$ funksiyaning hosilasi $()$ o'z navbatida hosilaga ega bo'lgan funksiya bo'lsa, u holda uning hosilasi ikkinchi tartibli hosila deyiladi va $()$ deb belgilanadi. Agar $()$ ikkinchi tartibli hosila yana hosilaga ega bo'lgan funksiya bo'lsa, u holda uning hosilasi uchunchi tartibli hosila deyiladi va $()$ kabi yoziladi. Xuddi shunday to'rtinchi, beshinchi va xakazo tartibli hosilalarga ta'rif berish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4708- son 07.05.2020 qarori.
2. Dr Michael Evans, AMSI. Supporting Australian Mathematics Project module// Applications of differentiation//Education Services Australia,2019 y.
3. <http://Skillgrower.com> - Finlyandiya matematika online platformasi.
4. <https://mathnet.uz> – Milliy matematika online platformasi.
5. А.Ж. Сейтов, Ф.Х. Абдумавлонова. Решение геометрических задач с помощью математического пакета MAPLE. Academic research in educational sciences, 2021. Т.2 №6 Pp.933-941.
6. S.Kh.Khasanova A.J.Seytov, A.J. Khurramov, S.N.Azimkulov, M.R.Sherbaev, A.A.Kudaybergenov. Optimal control of pumping station operation modes by

cascades of the Karshi main canal. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 2021. Том

7. №4. Рр. 17177-17185. 1. Азларов Т.А., Мансуров Х. Математик анализ. Тошкент 2000 й. 2. Агальцева Н.А Долгосрочные прогнозы стока малых рек // Тр. САНИГМИ. - 2001. – вып.163(244), стр. 113-122.
8. Агальцева Н.А Долгосрочный прогноз притока в Нурекское водохранилище на реке Вахш // САНИГМИ,- 1996. Вып. 149 (230),стр. 101-108.
9. Агальцева Н.А., Василина Л.Ю. Долгосрочный прогноз притока воды в Чарвакское водохранилище // Тр. САНИГМИ. - 1992. - Вып. 145, стр. 52-58
10. Мягков С.В. Метод долгосрочного прогноза стока реки Амударьи в створах п.Керки и п.Дарганата с учетом хозяйственной деятельности // Руководящий документ. Методические указания. РН 68.02.07:2001. - Ташкент: САНИГМИ. - 2001г.,стр. 15

INTEGRALNING FIZIKAGA TADBIQI

Yaxshiyev Nu'monjon Asatilloevich - Matematika

Xamrayev Almos Amonovich - Matematika

Aliyev Nu'rjahon To'xtamurod o'g'li - Fizika

+998971278189

Annotatsiya: Ushbu maqolada matematikaning eng qiziq mavzularidan biri bo'lgan Ikki karrali integralning tatbiqlari. Ikki karrali integral yordamida yuza va jism hajmini hisoblash. Massa, o'rta qiymat va inersiya momentini topish haqida ma'lumotlar berib o'tildi va mavjud muanmolarga ilmiy yondashildi. Ikki karrali integral aniq integralning ikki o'zgaruvchili(argumentli) funktsiya uchun umumlashgan holdir. Ikki karrali integral ham aniq integralning asosiy xossalariga ega. Aniq integralning xossalarini takrorlashni tavsiya etamiz.

Kalit so'zlar: *Ikki karrali integralning ta'rif, Ikki karrali integralni hisoblash, Ikki karrali integralning tatbiqlari.*

Aniq integral, uning geometrik ma'nosi. Aniq integral - matematik analizning eng muhim tushunchalaridan biridir. Egri chiziq bilan chegaralangan yuzalarni, egri chizikli yo'ylar uzunliklarini, hajmlarni, bajarilgan ishlarni, yo'llarni, inersiya momentlarini va hokazolarni hisoblash masalasi shu tushuncha bilan bog'liq. $[a, b]$ kesmada $y = f(x)$ uzluksiz funktsiya berilgan bo'lsin. Quyidagi amallarni bajaramiz: 1. $[a, b]$ kesmani qo'yidagi nuqtalar bilan ixtiyoriy n ta qismga bo'lamiz, va ularni qismaniy intervallar deb ataymiz: $a = x_0 < x_1 < x_2 < x_3 < x_i \dots < x_n = b$ 2. Qismaniy intervallarning uzunliklarini bunday belgilaymiz: $1 \Delta x_1 = x_1 - a \Delta x_2 = x_2 - x_1 \dots \Delta x_i = x_i - x_{i-1} \dots \Delta x_n = b - x_{n-1}$ σ_n yig'indi $f(x)$ funktsiya uchun $[a, b]$ kesmada tuzilgan integral yig'indi deb ataladi.

Integral yig'indining geometric ma'nosi ravshan: Agar $f(x) \geq 0$ bo'lsa, u holda σ_n – asoslari $\Delta x_1, \Delta x_2, \dots, \Delta x_i, \dots, \Delta x_n$ va balandliklari mos ravishda $f(c_1), f(c_2), \dots, f(c_i), \dots, f(c_n)$ bo'lgan to'g'ri to'rtburchak yuzlarining yig'indisidan iborat (1- rasm). Endi bo'lishlar soni n ni orttira boramiz ($n \rightarrow \infty$) va bunda eng katta intervalning uzunligi nolga intilishini, ya'ni $\max \Delta x_i \rightarrow 0$ deb faraz qilamiz. Ushbu ta'rifni beramiz. Ta'rif. Agar σ_n integral yig'indi $[a, b]$ kesmani qismaniy $[x_i, x_{i-1}]$ kesmalarga ajratish usuliga va ularning har biridan c_i nuqtani tanlash usuliga bog'liq bo'lmaydigan chekli songa intilsa, u holda shu son $[a, b]$ kesmada $f(x)$ funktsiyadan olingan aniq integral deyiladi.

Teorema. Agar $u=f(x)$ funktsiya $[a, b]$ kesmada uzluksiz bo'lsa, u integrallanuvchidir, ya'ni bunday funktsiyaning aniq integrali mavjuddir.4 Agar

yuqoridan $y=f(x)\geq 0$ funksiyaning grafigi, qo'yidan OX o'qi, yon tomonlaridan esa $x=a$, $x=b$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan sohani egri chizikli trapetsiya.

Nyuton-Leybnits formulasi. Aniq integrallarni integral yig'indining limiti sifatida bevosita hisoblash ko'p hollarda juda qiyin, uzoq hisoblashlarni talab qiladi va amalda juda kam qo'llaniladi. Integrallarni topish formulasi Nyuton-Leybnits teoremasi bilan beriladi. Teorema. Agar $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning $[a, b]$ kesmadagi boshlang'ich funksiyasi bo'lsa, u holda aniq integral boshlang'ich funksiyaning integrallash oralig'idagi orttirmasiga teng.

Integral ostidagi funksiyaning boshlang'ich funksiyasi ma'lum bo'lsa, u holda Nyuton-Leybnits formulasi aniq integrallarni hisoblash uchun amalda qulay usulni beradi. Faqat shu formulaning kashf etilishi aniq integralni hozirgi zamonda matematik analizda tutgan o'rnini olishga imkon bergan. Nyuton-Leybnits formulasi aniq integralning tatbiqi sohasini ancha kengaytirdi, chunki matematika bu formula yordamida xususiy ko'rinishdagi turli masalalarni yechish uchun umumiy usulga ega bo'ldi.

Aniq integralning tatbiqlari. Figuralar yuzlarini dekart koordinatalar sistemasida hisoblash a) Avvalgi o'tilgan mavzulardan ma'lumki, agar $[a, b]$ kesmada funksiya $f(x)\geq 0$ bo'lsa, u holda $y=f(x)$ egri chiziq, OX o'qi va $x=a$ hamda $x=b$ to'g'ri chiziqlar bilan chegaralangan egri chizikli trapetsiyaning yuzi ga teng bo'ladi. Agar $[a, b]$ kesmada $f(x)\leq 0$ bo'lsa, u holda aniq integral.

Agar $f(x)$ funksiya $[a, b]$ kesmada ishorasini chekli son marta o'zgartirsa, u holda integralni butun $[a, b]$ kesmada qisman kesmachalar bo'yicha integrallar yig'indisiga ajratamiz. $f(x)>0$ bo'lgan kesmalarda integral musbat, $f(x)$.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S.Kh.Khasanova A.J.Seytov, A.J. Khurramov, S.N.Azimkulov, M.R.Sherbaev, A.A.Kudaybergenov. Optimal control of pumping station operation modes by cascades of the Karshi main canal. International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology, 2021. Tom №4. Pp. 17177-17185. 1. Азларов Т.А., Мансуров Х. Математик анализ. Тошкент 2000 й. 2. Агальцева Н.А Долгосрочные прогнозы стока малых рек // Тр. САНИГМИ. - 2001. – вып.163(244), стр. 113-122.
3. Агальцева Н.А Долгосрочный прогноз притока в Нурекское водохранилище на реке Вахш // САНИГМИ,- 1996. Вып. 149 (230),стр. 101-108.
4. Агальцева Н.А., Василина Л.Ю. Долгосрочный прогноз притока воды в Чарвакское водохранилище // Тр. САНИГМИ. - 1992. - Вып. 145, стр. 52-58
5. Мягков С.В. Метод долгосрочного прогноза стока реки Амударьи в створах п.Керки и п.Дарганата с учетом хозяйственной деятельности // Руководящий документ. Методические указания. РН 68.02.07:2001. - Ташкент: САНИГМИ. - 2001г.,стр. 15

TEZLIKKA OID MASALALAR

Yaxshiyev Nu'monjon Asatilloevich - Matematika

Xamrayev Almos Amonovich - Matematika

Aliyev Nu'rjahon To'xtamurod o'g'li - Fizika

+998971278189

Annotatsiya - Jisrming aylana bo'ylab harakati egri chiziqli harakatning xususiy holi hisoblanadi. Kinematikada harakatning bunday ko'rinishi ham ko'rib chiqiladi. Egri chiziqli harakatda jism tezlik vektorining yo'nalishi hamma vaqt trayektoriyaga urinma bo'ladi. Xuddi shunday hol aylanma bo'ylab harakatda ham sodir bo'ladi. Aylana bo'ylab tekis harakatda nuqtaning harakatini tavsiflash uchun quyidagi kattaliklar kiritilgan: chastota ν , aylanish davri T va burchak chastota.

1-masala. Samolyot yerga nisbatan 48 m/s tezlik bilan shimolga uchib bormoqda. Agar g'arbdan tezligi 14 m/s bo'lgan shamol esa boshlagan bo'lsa, samolyot yerga nisbatan qanday tezlik bilan harakatlanadi? Berilgan: $\nu_i = 48$ m/s; $\nu_i = 14$ m/s.

2-masala. Shamol tezligi 10 m/s ga teng bo'lganda yomg'ir tomchisi vertikalga nisbatan 30° burchak ostida tushmoqda. Shamolning tezligi qanday bo'lganda tomchi vertikalga nisbatan 60° burchak ostida tushadi? Berilgan: m/s; $\alpha = 30^\circ$; $\alpha = 60^\circ$. Topish kerak: ν_{tomchi} - ? Yechilish. Tomchining harakatdagi havo bilan bog'liq bo'lgan sanoq sistemadagi tezligi ν_{tomchi} bu shamol bo'lmagandagi yomg'ir tomchisining tushish tezligi.

Ushbu tezlik vertikal pastga yo'nalgan bo'lib, u faqat yomg'ir turi (tomchi o'lchami) bo'yicha aniqlaniladi. Tomchi uchun tezliklarni qo'shish qonuni, ya'ni:

3-masala. Avtomobil yo'lining birinchi yarmini ν_i m 36 km/soat, ikkinchi yarmini esa $\nu_r = 54$ km/soat tezlik bilan o'tdi. Butun yo'l davomi-dagi o'rtacha tezlikni toping. O'rtacha tezlik ν_i va ν_r ning o'rtacha arifmetik qiymatidan kichik ekanligini isbotlang. Berilgan: $\nu_i = 36$ km/soat = 10 m/s; $\nu_r \sim 54$ km/soat = 15 m/s. Topish kerak: $\nu_{\text{o'rtacha}}$ - ?

ν_i va ν_r esa shu yo'llarni bosib o'tish uchun ketgan vaqt. Butun yo'lning S bilan, esa t bilan belgilab olamiz

O'rtacha tezlik ν_t va ν_j ning o'rtacha arifmetik qiymatidan kichik.

4-masala. Tezligi 100 m/s bo'lgan samolyot qo'nish yo'liga kelib tushdi. U 20 s vaqt davomida to'xtaydi. Tezlanish va tormozlanish yo'lining uzunligi topilsin. Berilgan: $\nu = 100$ m/s, $t = 20$ s. Topish kerak: a - ? S - ?

5-masala. Velosipedchi tinch holatidan boshlab birinchi 4 s davomida 1 m/s² tezlanish bilan o'tdi, so'ngra 0,1 min davomida tekis harakatlandi va oxirgi 20 m davomida to'xtagunicha tekis sekinlanuvchan harakat qildi. Butun harakatlanish vaqtidagi o'rtacha tezlikni toping. Berilgan: $t_1 = 4$ s; $a = 1$ m/s²; $t_2 = 0,1$ min = 6 s. Topish kerak: $\nu_{\text{o'rtacha}}$, S , t - ?

Автомобил текис тезланувчан ҳаракат қилиб, ҳаракат бoshlangandan 5 s вақт оʻtgandan keyin 36 km/soat тезликка еришган. Ҳаракатнинг учинчи секундida автомобил қанча yoʻl bosib oʻtadi? Берилган: $t_s = 5$ s; $9s = 36$ км/soat = 10м/s.

Ushbu formulaga $t_s = 5$ s; $9s = 10$ м/s қийматлами қоʻyamiz va тезlanish-ni topamiz: $a = 2$ м/s². Uchinchi sekundda bosib oʻtilgan yoʻl, uch sekund davomida bosib oʻtilgan yoʻldan ikki sekund davomida bosib oʻtilgan yoʻllar farqiga teng.

Fizikadan qiyin masalalarni yoki olimpiada masalalarini yechish oʻquvchilarning ilmiy dunyoga kirishdagi dastlabki qadami hisoblanadi. Har bir masala mustaqil ravishda hal qilinishi lozim boʻlgan kichik ilmiy muammodir. Olimpiada masalalari - bu olimlarning ilmiy-tadqiqot faoliyatlarida uchraydigan ilmiy muammolarning bir turidir [3]. Fan va texnikaning bugungi taraqqiyoti tabiiy va texnika sohalarida koʻproq yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi. Buning uchun fizika fanini oʻqitish samaradorligini oshirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularning ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish shu kunning dolzarb muammolaridan biridir. Fizikadan masalalarni yechish oʻquvchilarning ilmiy dunyoga kirishdagi dastlabki qadami hisoblanadi. Har bir masala mustaqil ravishda hal qilinishi lozim boʻlgan kichik ilmiy muammodir. Ammo hozirgi kunda fizikadan masala yechish kitoblari sanoqlidir, ayniqsa uzluksiz taʼlimning asosiy bosqichi boʻlmish Oliy taʼlim dargohlariga tayyorlab beruvchi akademik litseylarda masala yechish naqadar muhim boʻlishiga qaramasdan oʻzbek tilidagi adabiyotlar soni cheklangan. Ayniqsa masalalar yechish usullari koʻrsatib oʻtilgan darsliklar juda kam. Masala yechish - fizika oʻqitish jarayonining ajralmas qismi boʻlib, u fizik tushunchalarni shakllantirishga katta xissa qoʻshadi, fizik fikrlarni rivojlantiradi, bilimni amalda qoʻllash malakasini orttiradi. Fizika masalalarini yechish quyidagi hollarda keng qoʻllaniladi:

- a) yangi axborotlar berishda;
- b) muammoli vaziyat hosil qilish va oʻquvchilarga muammo qoʻyishda;
- d) amaliy malaka va koʻnikmani shakllantirishda;
- e) oʻquvchilar bilimining mustaxkamligi va chuqurligini sinashda;
- f) materialni mustaxkamlash, umumlashtirish va takrorlashda;
- g) texnika yutuqlari bilan tanishtirishda va politexnik taʼlim berishda;
- h) oʻquvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda.

Moddiy nuqta toʻgʻri chiziq boʻyicha harakatlanmoqda.

Uning harakat tenglamasi $S = t^4 + 2t^2 + 5$. Moddiy nuqtaning harakat boshlanganidan ikkinchi sekundi oxiridagi oniy tezligi va tezlanishi, shuningdek ushbu vaqt davomida bosib oʻtgan yoʻli va oʻrtacha tezligi topilsin. Берилган: $S = (t^4 + 2t^2 + 5)$; $t = 2$ s. Topish kerak: 9 — ?; a — ?;

Oniv tezlik bu yoʻldan vaqt boʻyicha olingan birinchi tartibli hosiladir, ya ni

Oniv tezlanish bu tezlikdan vaqt boʻyicha olingan birinchi tartibli hosiladir.

At — t — to vaqt davomidagi moddiy nuqtaning o'rtacha tezligi quyidagi formula bo'yicha aniqlaniladi:

$$S = S(t), 9(0) = t^4 + 1t^2 + 5 = 24.$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. M.Nosirov, O.Bozarov, Sh.Yulchiev. Fizikadan olimpiada masalalari. Toshkent: 2012.
2. А.Г.Чертов, А.А.Воробьев. Физикадан масалалар туплами. Тошкент: «Узбекистон», 1997.
3. T.Rizayev. B.Ibragimov. Fizikadan masalalar yechish metodikasi. Toshkent: 2015.
4. Raxmatullayeva G. N. V. Q., Atajanov E. Y., Sotivoldiyeva M. I. Q. QATTIQ JISMLAR FIZIKASIGA OID MASALALAR YECHISH ORQALI O'QUVCHILARNI FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORLASH METODIKASI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11. – C. 160-165.
5. Qizi R. G. N. V. ANIQ FANLARGA IXTISOSLASHTIRILGAN AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKADAN MASALA YECHISH DARSLARINI TAKOMILLASHTIRISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B3. – C. 1012-1016.
6. Qizi R. G. V. OLIMPIADA MASALALARI ORQALI O'QUVCHILARNING FIZIKA FANIGA QIZIQISHINI ORTTIRISH METODIKASI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 7-12.
7. Rakhmatullayeva G. METHODOLOGY FOR SOLVING OLYMPIAD TASKS IN KINEMATICS //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 115-118.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI AHAMIYATI

Qo'chqarova Feruza Tursunboyevna

Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumani

36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ishlatiladigan zamonaviy interfaol metodlar, boshlang'ich sinflarni o'qitishda axborot texnologiyalari ahamiyati va foydali tomonlari hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirishda va ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishda interfaol metodlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: interfaol metodlar, axborot texnologiyalari, unlilar metodi, kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, mantiqiy fikrlash.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi. Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Interfaol metodlarning bosh maqsadi-o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarini ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda bironta ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Interfaol ta'lim o'z xususiyatiga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbat-dars jarayonini loyihalash orqali muammoli vaziyatni

hosil qilish va yechish orqali kreativ-ijodkorlik asosida axborot kommunikatsion texnologiyalar yordamida amalga oshirish metodlarini o'z ichiga oladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida ta'lim o'z navbatida kompyuter dasturlari yordamida o'qitish, masofadan o'qitish, internet tarmoqlari asosida o'qitish, media-ta'lim metodlaridan iborat. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh hususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amalga oshirish haqida fikr yuritamiz. Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikga yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Ta'lim - tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yo'lanishlardagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, interfaollikka asoslangan didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi. Interfaol o'yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi. - ishtirokchilarni tarkibi bo'yicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o'yinlar :

- ishtirokchilarning soni bo'yicha -yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzidagi o'yinlar :

- o'yin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlarga asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

- vaqt me'yori bo'yicha -dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.

Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. Shuning uchun ham boshqa predmetlar ta'limini o'qish ta'limisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Boshlang'ich ta'limda quyidagi metodlardan foydalaniladi.

Unlilar metodi.

Bu metodda o'quvchilar 3 ta guruhga bo'linadi hamda har bir guruhdan bir nafardan o'quvchi sinf taxtasiga chiqadi. Unli harflarga bittadan misol tariqasida meva va sabzavotlar nomini yozishadi. Eng ko'p meva va sabzavot yozgan o'quvchi g'olib boladi hamda jamoasiga 1 ball olib beradi. Unlilar metodi yordamida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashi va nutqi yaxshi rivojlanadi.

Videotopishmoq metodi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi: o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;

jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;

o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Oxirgi so'zni men aytay metodi.

Bu metodda o'qituvchi she'r, hikoya yoki topishmoqlardan dastlabki matnni o'qib beradi. O'quvchilarni vazifasi shu she'r, hikoya yoki topishmoqlarni qolgan qismini davom ettirish kerak bo'ladi. Oxirgi so'zni men aytay metodida ham o'quvchilar guruhlarga bo'lingan holatda ishtirok etadilar. Eng ko'p so'zlarni topgan guruhlar g'olib hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda boshlang'ich sinflarda interfaol va zamonaviy metodlardan foydalanish o'quv jarayonini samarali tashkil etishning asosidir. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish esa o'quvchilarni mustaqil fikrlashga ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashni kengaytirish bilan birga ularni mdarslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov U.K., Sharipov Sh.S. O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. - T., Fan, 2012.
2. Yo'ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. - T: Fan va texnologiya, 2008
3. Mirziyoyev Sh.M. (2017). Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. O'zbekiston.
4. A.Musurmanova va boshqalar. Umumiy pedagogika - Toshkent. Innovatsiya - Ziyo.2020.-194-bet
5. O'. Q. Tolipov va M. Usmonboyeva .Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari - Toshkent.Fan. 2006.-260bet

IMOM AT-TERMIZIYNING HAYOTI VA MEROSI

Ilmiy raxbar: Samatov. X

TATU Samarqand Filiali Kompyuer Injineriing

Fakulteti KI23-02 guruh talabasi

Saydullayev. X

Annotatsiya: ushbu maqola Imom Termiziy hayoti va ijodi. Jamlagan hadislarini islom diniga qoshgan hissasi haqida ma'lumot berib o'tilgan. Imom Termiziyning sahih hadislaridan ham misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: hadis, iso, sahih, muallif, qator, saxiy, ramazon, g'azab, ma'lumot, iroq, ilm, tarix.

Termiziy Abu Iso arabcha: — Termiziy Abu Iso — To'liq ismi: Abu Iso Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhoq Sullamiy Zariyr Bug'iy Termiziy — muhaddis, faqh va hofiz.

Hayoti: Termiziy Abu Iso, Imom Termiziy (824, Termiz — 892, Bug' qishlog'i, hozirgi Sherobod tumani) — buyuk muhaddis. Sullamiy deb nisbat berilishiga sabab bobolaridan biri sullam degan arab qabilasiga do'st tutingan, Bug'iy deyilishiga sabab o'sha vaqtdagi But nomli qishloqda vafot etib, shu yerga dafn qilingan. Umrining oxirida ko'zi ojiz bo'lib qolgani uchun adDarir taxallusi bilan ham atalgan. Termiziyning yoshlik yillari Termiz shahrida o'tgan, dastlabki ma'lumotni ham shu yerda olgan. Termiziy Abu Isoning oilasi va ota-onasi haqida manbalarda aniq ma'lumotlar keltirilmagan, faqat tarixchilar uning: "Bobom asli marvlik edi, u kishi Lays ibn Sayyor zamonida yashagan, so'ng u yerdan Termizga ko'chib kelganlar", — degan fikrini keltirish bilan chegaralanadilar. Bolaligidan o'ta ziyrakligi, xotirasining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan. Diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan o'rgangan, bu boradagi bilimlarini yanada oshirish uchun ko'pgina Sharq mamlakatlariga borgan. Uzoq yillar Iroq, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Uzoq davom etgan safarlari chog'ida qiroat ilmi, bayon, fikd, tarix, ayniqsa, o'zi yoshlikdan qiziqqan hadis ilmi bo'yicha o'sha davrning yirik olimlarndan ta'lim oladi. Mashhur muhaddislardan Imom Buxoriy, Imom Muslim, Imom Abu Dovud, Qutayba ibn Sayd, Ishoq ibn Muso, Maxmud ibn G'aylon va boshqa uning ustozlari edi.

Termiziy Imom Buxoriy bilan uchrashganida (bu uchrashuv Nishopurda bo'lgan va ikki alloma 5 yil birgalikda yashashgan) hadisning matnigina emas, uning hikmati va falsafasini tushunib yetganini e'tirof etadi. O'z navbatida Imom Buxoriy o'z shogirdini maqtab, kamtarinlik bilan: "Sen mendan bahra

topganingdan ko'ra men sendan ko'proq bahra topdim", degan. Bu Termiziyga berilgan juda katta baho edi.

Termiziy yo'lda, safarda bo'lganda ham, yoki bir joyda muqim turganda ham ustozlaridan, uchratgan roviylardan eshitgan hadislarini yozib olar, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borardi. 868-yil xorij safaridan o'z yurtiga qaytgan Termiziy ilmiy-ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ldi va yirik muhaddis olim, imom sifatida shuhrat qozondi. Taqvodorlik, islom dini va o'z obro'siga gard yuqtirmaslikka intilish, dunyo molmatosi va boylikka beparvo qarash, oxiratning g'amini yeyish Termiziyning hayoti tarzi edi. Termiziyning shogirdlari uning ishlarini davom ettirdi. Ular ichida Makhul ibn alFadl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Hamod ibn Shokir, Abd ibn Muhammad Nasafiy, Haysam ibn Kulayb Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf Nasafiy va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Faoliyat: Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. "Al-jome' as-sahih" ("Ishonarli to'plam"), "ashShamoil annabaviya" yoki "AshShamoil annabiy sallolohu alayhi va sallam" ("Payg'ambar alayhissalomning shakl va sifatleri"), "alIlal filhadis" ("Hadislardagi illatlar"), "Risola filxilof valjadal" ("Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola"), "atTa'rix" ("Tarix"), "Kitob uzzuhd" ("Zohidlik kitobi"), "Kitob ulasmo valkuno" ("Ismlar va kunyalar kitobi") va boshqa Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, "Al-jome' as-sahih" bo'lib, 6 ta ishonchli hadislar to'plamidan biridir. Ushbu asar ilmiy manbalarda "Jome' at-Termiziy", "Sahihi Termiziy", "Sunani Termiziy" nomi bilan ham ataladi. Termiziyning muhim asarlaridan yana biri "ash-Shamoil an-nabaviya" Muhammad (alayhi sallom)ning shaxsiy hayoti, u zotning suvrat va siyrati, ajoyib fazilatleri, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o'z ichiga qamragan manbadir. Bu kitob azaldan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortib keladi. Arab tilida bitilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Uning tili ravon, uslubi g'oyatda oddiy. Asar fors va turk tillariga tarjima qilingan. "Ash-Shamoil an nabaviya"ning 1-qismida keltirilgan hadisi shariflar payg'ambarning suvrat (tashqi qiyofasi) iga, 2-qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyosiya, axloqiy fazilatlarini bayon qilishga, ya'ni siyratga bag'ishlangan. Kitobning 16-asrga oid bir qo'lyozmasi Toshkentda, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanadi. "Ash-Shamoil an-nabaviya" o'zbek tiliga o'girilib so'nggi yillarda Toshkentda bir necha bor nashr etildi. 1990-yil Termiziy tavalludining 1200-yilligi yurtimizda keng nishonlandi. Mustaqillik yillarida Termiziyning yodgorlik majmuasi 2016-2017-yillari qaytadan ta'mirlanib, qutlug' ziyoratgohga aylantirildi.

Hadis haqida tushuncha: Hadis - islom dinida Qur'ondan keyin turadigan ikkinchi muqaddas manba bo'lib, Muhammad alayhissalomning hayoti va faoliyati, uning diniy va axloqiy ko'rsatmalarini o'z ichiga oladi. Muhammad payg'ambar biror gap aytgan, biror ish qilib ko'rsatgan yoki boshqalar qilgan biron-bir ishni ko'rib turib,

uni man etmagan bo'lsa, ana shu uch holat sunnat hisoblanadi. Ana shunday xatti-harakatlar yoki ko'rsatmalar hadis deb yuritiladi. Hadislarda islom dinining qonun-qoidalari bilan birgalikda insoniy fazilatlar ham keng tashviq qilinadi, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan yomon sifatlar qoralanadi. Ya'ni, hadislarda o'zaro do'stona munosabatlar, qarindosh, ota-ona va farzandlarning haq-huquqlari, mehr-oqibat, halollik, poklik, adolat, insof-tavfiqli bo'lish targ'ib qilingan. Razolat, kibr-u havo, ado vat, hasad, xiyonat, yolg'onchilik, fitna-fasod, zulm kabi illatlarga nafrat tuyg'ulari ifodalangan.

Vaqt o'tishi bilan turli ijtimoiy ziddiyatlar, dindagi ichki g'oyaviy kurashlar natijasida soxta hadislar ham paydo bo'la boshlagan. Natijada hadis ilmi bilan shug'ullanuvchi olimlar - muhaddislar hadislarni ishonchli manbalar asosida qayta ko'rib chiqishga, ularning haqiqiyliklarini soxtalaridan ajratishga kirishganlar. Shunday qilib, islom olamining turli yerlarida hadis ilmining yirik targ'ibotchilari va mualliflari paydo bo'la boshladi.

Hadis ilmining rivojlanishiga, ayniqsa, bizning yurtimizdan yetishib chiqqan muhaddislar ulkan hissa qo'shishgan. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy, Abu Muhammad Abdulloh ibn Abd ar-Rahmon ad-Dorimiy as-Samarqandiy o'z umrlarini hadis to'plash va ularni o'rganishdek muqaddas ishga bag'ishlaganlar. Mashhur muhaddislar orasida Imom Buxoriy eng oldingi o'rinda turadi. Uning yozgan kitoblari ichida eng mashhuri «Al-jome' as-sahih» (bu asar «Sahih al-Buxoriy» nomi bilan ham mashhur) asaridir. Imom Buxoriygacha o'tgan muhaddislar hadis kitoblariga barcha eshitgan hadislarini kiritar edilar. Hadislarni barcha shartlari bilan tekshirib, ularni sahih (ishonchli) yoki g'ayrisahih (ishonarsiz) qismlarga ajratmas edilar. Birinchi bo'lib bu uslubni Imom Buxoriy joriy etgan. Hadislar tuzilishiga ko'ra, yuqorida ta'kidlanganidek, ikki qismdan hadisning mazmuni (matni) va uning sanadi (Kim tomonidan aytilganligi)dan iborat. Hadislarni bir-biridan eshitib, rivoyat qilib, avloddan avlodga qoldirib kelgan roviylar ro'yxati hadisning musnadi deyiladi. Muhammad payg'ambardan so'ng biron-bir hadis yozib olingunga qadar o'tgan vaqt ichida ushbu hadisni bir-biriga naql qilib kelgan roviylar tartibida (musnadda) uzilish bo'lmasa, bunday hadislar ishonchli hisoblangan.

Imom-at Termiziyning hadislari va ularning ahamiyati. Mashhur muhaddislardan yana biri vatandoshimiz Abu Iso at-Termiziy bo'lib, u 824 yilda Termiz yaqinidagi Bug' (hozirgi Surxonlaryo viloyatining Sherobod tumanida) qishlog'ida to'g'ilgan. Uning oilasi va ota-onasi haqida ma'lumotlar yo'q. Ba'zi tadqiqotchilar uning asli marvlik bo'lgan deb qayd etadilar.

U bolaligidan ilmga qiziqqan bo'lib, ayniqsa hadis ilmini chuqur egallagan. At-Termiziy 950 yildan qator mamlakatlarga safar qiladi. Hijozda bo'lib, Makka va Madinani ziyorat qiladi, Iroq, Xurosonda hadis ilmi, fiqh, ilmi al-qiroat, bayon, tarix

va boshqa ilmlarni o'rganadi. Mana shu safarda at-Termiziy hadislarni to'play boshlaydi. Hadis ilmini o'rganishda mashhur muhaddis at-Termiziy ustoz al-Buxoriyni alohida hurmat qiladi. Hatto manbalarda at-Termiziy ustozining vafoti tufayli ko'p yig'laganidan ko'zi ko'r bo'lib qolgan, degan fikrlar ham mavjud. At-Termiziyning o'tkir zehni, xotirasi, yodlash qobiliyatining kuchliligi tufayli al-Buxoriy ham uni faqat shogird sifatida emas, o'ziga hamkor do'st sifatida ham hurmat qilgan. At-Termiziy uzoq safarida hadislarni to'plab, kitoblar ta'lif qilishga boshladi.

U 863 yilda o'z vataniga qaytdi va o'zi ham shogirdlarga ta'lim berib, xam kitoblar yozdi. At-Termiziyning o'ndan ortiq asarlar yaratganligi ma'lum. Bular "Al-Jom'e as-sahih" ("Ishonchli to'plam"), "Ash-Shamoil an-Nabaviya" ("Payg'ambarning alohida fazilatlarini"), "Al-ilal fi-l-hadiys" ("Hadislardagi illatlar va og'ishlar haqida") asarlari mashhurdir. At-Termiziyning yozib qoldirgan asarlaridagi hadislar ham al-Buxoriy hadislari kabi insonni halollik, adolat, e'tiqod, diyonat, poklik, mehnatsevarlik, muruvvatlilik, mehr-shafkat, kattalarga, ota-ona va qarindoshlarga hurmat ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Imom Termiziy saxovat haqida: O'zbekistondagi Buxoro, Samarqand, Nasaf (Qarshi), Xiva, Shosh (Toshkent), Termiz va boshqa shaharlar butun musulmon Sharqidagi ilmiy-madaniy markazlar qatorida mashhur bo'lgani o'rta asr tarixiy manbalarida bayon etilgan. Ayniqsa, ko'hna Surxon diyori ham tabarruk go'sha bo'lib, bu erdan Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Varroq Termiziy kabi buyuk allomalar, avliyolar, olimlar etishib chiqqan.

Shuningdek, Surxon zaminida Sulton Saodat maqbarasi, Kokildor ota, Xoja Samandar Termiziy, So'fi Olloyor, Xoja Alouddin Attor kabi ulug' zotlarning ziyoratgohlari joylashgan.

Termiz mamlakatimizdagi eng ko'hna shaharlardan biri bo'lib, bu erda ilk o'rta asrlardan boshlab ilm-fan va madaniyat rivojlangan. O'rta asr manbalarida bu erdan etishib chiqqan yuzdan ortiq olimlar haqida ma'lumotlar mavjud. Ular ilm-fanning turli sohalarida, jumladan, islom ilmlari, tabiiy va aniq fanlar, tarix, adabiyot sohalarida faoliyat olib borishgan. Olimlar va valiyalar ko'pligi bois Termiz shahriga "Madinat ur-rijol" – "Avliyolar shahri" deb nom berishgan.

Termiz shahridan etishib chiqqan allomalar at-Termiziy nisbasi bilan butun dunyoda mashhur bo'lganlar. Ana shunday zotlardan biri – hadis ilmining "oltin asri"da faoliyat yuritgan "Sihohi sitta" ("Oltita ishonchli muhaddis") vakillaridan biri, buyuk muhaddis – Imom Termiziydir.

Imom Termiziyning to'liq nomlari – Muhammad ibn Iso ibn Savra ibn Muso ibn Zahhok as-Sullamiy az-Zariyr al-Bug'iy at-Termiziy bo'lib, kunyalarn Abu Isodir. Hijriy 209 (melodiy 824) yili Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida o'rta hol bir oilada tavallud topganlar.

O'rta asr muarrixi Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniy Imom at-Termiziyning Bug' qishlog'ida tug'ilib, faoliyat ko'rsatgani uchun Bug'iy nisbasi bilan ham atalgani hamda ustozlari Imom al-Buxoriyning vafoti tufayli ko'p yig'laganlaridan umrlarining oxirida ko'zlari ojiz bo'lib qolgani tufayli “Zariyr” laqabini olganlarini qayd etgan.

“Sunani Termiziy” (“Jomi' at-Termiziy”), “Ash-Shamoil an-nabaviyya” (“Ash-Shamoil al-Muhammadiyya”) – Imom at-Termiziyning shoh asarlaridan sanaladi. Ushbu asarlarda saxiylik go'zal xulqlardan hisoblanib, saxiylik – payg'ambarlar sifati ekani alohida ta'kidlangan. Jumladan, Imom Termiziy “Sunani Termiziy” asarida “Saxiylik” deb nomlangan alohida bob ajratgan va mazkur bobda saxovatga oid quyidagi hadisni keltirgan: “Saxiy Allohga yaqin, jannatga yaqin, insonlarga yaqin va jahannam olovidan uzoqdir. Baxil esa, Allohdan uzoq, jannatdan uzoq, odamlardan uzoq va jahannam oloviga yaqindir. Albatta, johil saxiy Alloh taolaga baxil obiddan ko'ra suyuqliroqdir”.

“Saxiy” molni sarflashda Allohning roziligini o'z boyligidan ustun qo'ya oladigan kimsadir. Odamlar saxiy insonlarni yaxshi ko'radilar, undan foyda ko'rmasalar ham, uning saxiyligini hurmat qiladilar. “Baxil” o'z zimmasidagi farz va vojib sadaqalarni berishdan bosh tortadigan insondir.

“Sunani Termiziy” asarida sadaqa, ehson, xayr-saxovat, zakot va ko'mak berishga doir hadislar keltirilgan.

657-hadis: “Anas ibn Molik (roziyallohu anhu) dan rivoyat qilindi: “Nabiy sallollohu alayhi va sallamdan: “Ramazon ro'zasidan keyin qaysi ro'za afzalroq?” deb so'raldi. Aytidilar: “Ramazon ta'zimi (hurmati) uchun SHa'bon ro'zasi afzalroq!”. Keyin: “Qaysi sadaqa (ehson) afzalroq?” deyildi. “Ramazonda berilgan sadaqa (ehson)!” dedilar.

658-hadis: “Sadaqa Rahmonning g'azabini so'ndirgay va yomon(xunuk) o'limni daf etgay”.

664-hadis: “Odamlardan biri aytdiki: “Yo, Rasululloh! Mening onam vafot qildi. Uning (ruhi) uchun sadaqa (ehson) qilsam, unga foydasi tegadimi?”. Rasuli Akram sallollohu alayhi va sallam: “Ha” dedilar. Kishi aytdi: “Mening bir mevazor bog'im bor. Sizni shohid qilgaymanki, uni onam (ruhi) uchun sadaqa qilib berdim!”.

Imom Termiziy “Ash-Shamoil al-Muhammadiyya” asarida payg'ambarimiz alayhissalomni shunday ta'riflaganlar: “...hammadan ziyoda saxiy zot edilar, hammadan ziyoda rost so'zlaguvchi va muloyim tabiatli, sharaflilik xonadonlik zot edilar...”.

ADABIYOTLAR

1. Buyuk muhaddislar (Imom alBuxoriy, Imom Muslim, Imom atTermiziy), T., 1998;
2. Buyuk allomalarimiz, T., 2002;
3. Uvatov U., Donolardan saboklar, T., 1994.

4. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlari-eng oliy qadriyat.-T.: O'zbekiston, 2005.
5. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh muhammad ibn Ismoil, al-Jome' as-Sahih (ishonchli to'plam). 4 jildlik.-T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1991-1999.
6. At-Termiziy. Sahih at-Termiziy, A.Abdullo tarjimasini.-T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.
7. Imom al-Buxoriy, al-Adab al-mufrad.-T.: O'zbekiston, 1990.
8. <https://yuz.uz/uz/news/imom-termiziy-saxovat-haqida>
9. <https://ok.ru/group/54330306593007/topic/67298729268719>
10. Samatov K. *Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – C. 175-179.*
11. *Ulmasjonovich K. S. Mystical and philosophical foundations of human interaction. – 2021.*
12. *Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." European Scholar Journal 2.11 (2021): 45-48.13:08*

О'ZGARUVCHAN TOKLAR ZANJIRINING ASOSIY TENGLAMASIGA OID SHARHLAR

Eshonkulova Matluba Erkinovna

Ohangaron tuman 1-son kasb- hunar maktabi


Fizika fani o'qituvchisi

Annotatsiya. O'zgaruvchan tok zanjiri qonunlarini o'rganishga kirishganimizda ma'lum bir o'ziga xos qiyinchiliklarga duch kelamiz. Birinchidan, o'zgaruvchan tok doimiy tokdan farqli ravishda yopiq bo'lmagan zanjirda ham hosil bo'ladi, bunga kondensatorli zanjir misol bo'la oladi. Ikkinchidan, o'zgaruvchan tok zanjirida o'zinduksiya EYuK hosil bo'ladi, bu holat doimiy tokda yo'q edi. O'zinduksiya EYuK katta bo'lishi uchun zanjirga yana g'altak ulash kerak.

Kalit so'zlar: O'zgaruvchan tok, zanjir, metod, formula.

KIRISH

Ketma-ket ulagan o'zgaruvchan tok manbai $\varepsilon(t)$, qarshilik R , kondensator C va Induktiv g'altagi L dan iborat tarmoqlanmagan eng sodda zanjirni qaraymiz (1-chizma).



1-chizma

Kvazistatsionarlik sharti (1) bajarilgan deb, tok kuchi va kuchlanishning oniy qiymati uchun Om qonunini yozamiz. Qaralayotgan zanjir ochiq bo'lgani uchun (kondensator qoplamalari) zanjirning bir qismi uchun Om qonunini quyidagicha yozish mumkin:

$$IR = \varphi_2 - \varphi_1 + \varepsilon, \quad (3)$$

bu yerda $\varphi_2 - \varphi_1 = U_C$ kondensator qoplamalari orasidagi potentsiallar ayirmasi. Undan tashqari zanjirdan tok o'tganda o'zinduksiya EYuK hosil bo'ladi. (3) qonundagi yig'indi EYuK manba EYuK $\varepsilon(t)$ va o'zinduksiya EYuK dan iborat bo'ladi:

$$\varepsilon = \varepsilon_{o'z} + \varepsilon(t).$$

Odatda o'zinduksiyani chapga o'tkaziladi va $U_L = \mathcal{E}_{o'z}$ ifoda induktivlikdagi kuchlanish deb yuritiladi. R qarshilikdagi kuchlanish IR ni U_R bilan belgilab, quyidagiga ega bo'lamiz:

$$U_R + U_L + U_C = \mathcal{E}(t). \quad (4)$$

Shunday qilib, kvazistatsionar tok zanjiri, doimiy tok zanjiri singari yopiq konturning barcha qiymatlaridagi kuchlanishlar yig'indisi shu konturdagi EYuK ga teng (Kirxgofning 2 qoidasi). Lekin doimiy tokdan farqli o'laroq, bu yerda zanjir qismlaridagi kuchlanishlar U_R dan tashqari, boshqalari tok kuchi I ga proporsional emasdir:

$$U_R = IR, \quad U_L = -\mathcal{E}_{y3} = -L \frac{dI}{dt}, \quad U_C = \frac{q}{C}. \quad (5)$$

Shuning uchun Kirxgofning ikkinchi qoidasi bu yerda tok kuchi va EYuK o'rtasidagi algebraik munosabatga olib kelmaydi, balki differensial tenglamaga olib keladi. Haqiqatda ham formula (4) ga kuchlanishlarning ifodalarini qo'ysak quyidagiga ega bo'lamiz:


$$L \frac{dI}{dt} + RI + \frac{q}{C} = \mathcal{E}(t). \quad (6)$$

yoki $I = \frac{dq}{dt}$ ekanligini hisobga olsak, demak: $\frac{dI}{dt} = \frac{d^2q}{dt^2}$,

$$L \frac{d^2q}{dt^2} + R \frac{dq}{dt} + \frac{q}{C} = \mathcal{E}(t). \quad (7)$$

Bu o'zgaruvchan tok zanjiri uchun asosiy differensial tenglama bo'lib, uning yechimi orqali zanjirda ro'y berayotgan barcha jarayon haqida axborot olish mumkin. Bu umumiy holat bir necha konkret masalalarda namoyish qilinadi.

Sinusoidal tok haqida tushuncha. Faradeyning elektromagnit induksiya qonuniga asosan, aylanuvchan ramkadan o'tuvchi ($abcd$) magnit oqimi vaqt bo'yicha o'zgaradi va o'zgaruvchan EYuK hosil qiladi (2-chizma).



2-chizma

Agar ramka tekis aylansa, vektor **B** bilan normal o'rtasidagi burchak α (2-chizma) vaqt bo'yicha chiziqli o'zgaradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, ramkadagi tok vaqt bo'yicha sinusoidal o'zgaradi. Texnikada o'zgaruvchan tok deganda sinusoidal qonun bo'yicha o'zgaradigan tokka aytiladi. Fizikada esa, o'zgaruvchan tok deb, istalgan vaqt bo'yicha o'zgaruvchan tokka aytiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Majidov S., Ibodullayev M., Yo'idosheva O., Berdiyev U., To'xtamishev B., Sattorov X. Elektr mashina va elektr yuritmalardan praktikum: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. —T., „Q'ituvchi“ NMIU, 2015. —176 bet.
2. <https://fayllar.org/mavzu-ozgaruvchan-va-ozgarmas-tok-elekt-mashinalari-reja.html>
3. Goldberg O.D., Helemskaya S.P. Elektromexanika: talabalar uchun darslik. yuqoriroq darslik muassasalar / Ed. O.D. Golberg. -M.: nashriyot uyi. "Akademiya" markazi, 2017 yil.

ENG KATTA MEROS BU- YAXSHI TARBIYA

Tarbiya fani o'qituvchisi:

Egamberdiyeva Shoxsanam Anvarovna

Ohangaron tuman 1 son kasb-hunar maktabi

Annotatsiya. Ushbu maqolada tarbiya metodlari va ularni umumiy o'rta ta'lim tizimida qo'llash metodikasiga qisqacha tavsif berilgan va shu asosda xulolsalar qilingan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, talim, obekt, o'quvchi, sinf, maktab, metod.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda tarbiya jarayonlariga har qachongidan ham ko'proq e'ibor qaratilmoqda. Bunga misol qilib, 2020-yil 6-iyundagi Vazirlar Mahkamasining 422-son qarori asosida "Tarbiya" fani konsepsiyasi ishlab chiqilganini, Xalq ta'limi vazirining 2020-yil 10-iyuldagi 161-son buyrug'i asosida maktablarda tarbiya fanining o'qilishi joriy etilganini aytishimiz mumkin¹.

O'qitish jarayonida tarbiya metodlarining ahamiyati juda kata. Chunki, mana shu metodlardan foydalangan holda ta'lim va tarbiya jarayonini birgalikda olib boorish mumkin. Metodning ijobiy va salbiysi bo'lmaydi, tarbiya jarayonida ma'lum yo'lni yuqori darajadagi samarali va samarasiz deya baholash mumkin emas. Metodning samaradorligini u qo'llanilayotgan sharoit nuqtai nazaridan baholash mumkin.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tarbiya masalasi qadimdan eng muhim ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ota-bobolarimizning tarbiya haqidagi qarashlari va axloqiy boyliklari juda katta.

Agar tarbiya metodlari bo'lmaganida ta'lim jarayonini to'g'ri amalga oshirish, o'qituvchi pedagogik qobiliyatini shakllantirish, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o'rtasida to'g'ri munosabatlarni yo'lga qo'yishning imkoniyati bo'lmasdi.

Har bir tarbiyalovchi ta'lim jarayonida yangi metod yaratishga harakat qiladi. Ammo, tarbiyaning mutlaqo yangi metodlarini yaratishga bironta tarbiyachining kuchi yetmaydi. Metodlarni takomillashtirish muammosi doimo mavjud, har bir tarbiyachi o'zining imkoniyatiga ko'ra uni hal qiladi, tarbiya jarayonining aniq shart-sharoitlariga mos ravishda o'zining xususiy qarashlarini ifoda etish asosida umumiy metodikani boyitadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Tarbiya jarayonining mazmuni shaxsning shakllanishiga qo'yiluvchi ijtimoiy talablar mohiyatidan iborat. Unutmaslik kerakki, aynan bitta mazmun turli xil fikrlar

¹ I.B. O'razova Tarbiya jarayonining mazmun mohiyati 1-b

bilan to'ldirilgan bo'lishi mumkin. Shu bois metodlarni umuman mazmun bilan emas, balki aniq fikrlar bilan bog'lash g'oyat muhimdir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Muayyan bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik va psixologik xususiyatlar yoshga xosdir. Masalan, shijoat va mas'uliyat tuyg'usini boshlang'ich ta'lim, o'rta ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarida ta'lim olayotgan o'quvchilarda ham shakllantirish mumkin. Biroq, har bir bosqichda mazkur sifatni shakllantirish borasida metodlarni maqsadga muvofiq qo'llay olish zarur.

NATIJALAR

Ayni damda tarbiya metodlaridagi yagona maqsad, mazmun, tartiblilkn aks ettiruvchi obektiv va mutanosib metodlar qo'llaniladi. Ana shunday tavsif bilan bog'liqlikda tarbiya metodlari uch guruhga bo'linadi²:

1. Shaxs ongini shakllantiruvchi metodlar
2. Faoliyatni tashkil etish va xulq-atvor tajribalarini shakllantirish metodlari
3. Xulq-atvorni va faoliyatni rag'batlantirish metodlari.

Shaxs ongini shakllantirish (ishontirish) metodlariga quyidagilar kiradi:hikoya, tushuntirish, izohlash, maruza, etik suhbat, nasihat, o'git, ko'rsatma, munozara, namuna. Bu guruhga mansub metodlarning vazifasi asosan, o'quvchilar ongida milliy g'oyani shakllantirish, davlatning ichki va xalqaro siyosatining mazmunini tushuntirishdan iboratdir. Bulardan eng ahamiyatlisi-bu hikoya metodidir.

Ushbu muammoning boshqa bir jihatini olib qaraganda ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan har qanday voqeani kuzatish, yangiliklarni eshitish ular ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi va buning natijasida esa o'qishga qiziqishning susayishi, tarbiyasining buzilishi kabi holatlarga olib kelishi mumkin. Shuning sababdan o'qituvchilar ta'lim jarayonida shaxs ongini shakllantiruvchi suhbat, hikoya kabi metodlardan foydalanib o'quvchilarga yuqorida aytilgan vaziyatlarning salbiy taraflarini ularga o'rnak bo'ladigandek voqealar asosida yoritib berishlari, natijada ularda ijobiy tassurotlar uyg'otish, ta'lim olishga qiziqishni orttirish va albatta insoniy yuksak fazilatlarni shakllantirishga erishishlari lozimdir.

Tarbiya jarayonida rag'batlantirish obekt ya'ni tarbiyalanuvchining xatti-harakatga ijobiy baho berish asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va uni qo'llab-quvvatlash usulidir. Bu metodni 5-8 sinflarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki, ushbu sinflarga o'smirlik davri to'g'ri keladi. O'smirlik ya'ni inqiroz davrida o'quvchilarda qarama-qarshi vaziyatlar masalan:ota-onalari, o'qituvchilari bilan ziddiyatlarning yuzaga kelishi, do'stlari bilan kelisha olmaslik, o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishi kabilar yuzaga kelishi mumkin

² X. Xodjaev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" T. :-2017

XULOSA VA MUNOZARA

Tarbiya metodlarini to'g'ri qo'llash va yosh darajasi va aqliy-ruhiy holatni hisobga olish lozim, shundagina o'quvchi o'zining kamolga yetayotganligini his qiladi, unda o'z kuchiga ishonch, mas'uliyat hissi paydo bo'ladi. Uni hurmat qilishadi, unga ishonishadi, uning fikrlari bilan qiziqishadi, unga quloq solishadi, demak, u jamoada o'z o'rniga ega bo'ladi.

Bir so'z bilan aytganda, metodni tanlayotganda tarbiyachida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan ishonch bo'lishi kerak. Buning uchun qo'llanilayotgan metod qanday natijaga olib kelishini oldindan ko'ra bilish lozimdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: «O'zbekiston», 2015 yi
2. B. X. Xodjaev "Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti" T. :-2017
3. <https://hozir.org> internet sayti
3. <https://ziyonet.uz> internet sayti

INGLIZ TILINI O'QITISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI

Suvanova Oydin

O'ZDJTU, ingliz tili 2-fakulteti,

2304-guruh talabasi

77-270-99-00

Ilmiy rahbar: Mamatkulova Nilufar

O'ZDJTU, ingliz tili 2-fakulteti,

Ingliz tili amaliy fanlar kafedrasini mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada dars mashg'ulotlari davomida o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda qo'llanilayotgan zamonaviy metodlardan biri bo'lgan loyiha asosida o'qitish hamda ulardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: chet tili, innovatsion, zamonaviy metodlar, kommunikatsion usullar, loyihaga asoslangan yondashuv(PBL), oila daraxti, (Family tree), ommaviy presentatsiya

Kirish: Bugungi kundan kunga rivojlanayotgan davrda har bir sohada, xususan, ilm-fan sohasida yutuqlarga erishish zamon talabiga aylanmoqda. Bu ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun avvalambor darslar sifatini yaxshilash, ulardagi har bir vazifa ustida ishlash, rivojlantirish va jarayonda qatnashayotgan talabalar bilan alohida shug'ullanish zarur. Shu sababli hozirgi kunda mas'ullar tomonidan ishlab chiqilgan hamda o'qituvchilar tomonidan takomillashtirilgan interfaol metodlar o'quvchilar bilimi hamda salohiyatini yaxshilash, ularning diqqatini darsga ko'proq jalb qilish, uni saqlab qolish uchun shu bilan birgalikda mashg'ulotlarni samarali va foydali tashkil qilish uchun deyarli barcha ta'lim muassasalarida qo'llanilib kelmoqda. Aqliy hujum, Venn diagram, loyihaga asoslangan o'qitish tizimi(Project-based learning) kabi uslublar shular jumlasidandir. Biz quyida ulardan ba'zilarining qulaylikari, elementlari hamda natijalari haqida so'z yuritimiz.

Asosiy qism: Hozirgi kunda chet tillarini, xususan, ingliz tilini o'rganish har taraflama insonni foyda tomon yetaklamoqda, unga dunyoni yanada yaxshiroq anglash, integratsion tajribalarini oshirish, shu bilan birgalikda xorijiy yoki nufuzli universitetlarda kengroq ko'lamda ta'lim olish kabi imkoniyatlarni yaratmoqda. Yosh avlod o'rtasida ingliz tilini rivojlantirish uchun, shuningdek, ulardagi chet tili savodxonligini oshirish uchun Prezidentimiz tashabbusi bilan turli amaliy ishlar olib borilmoqda, o'qituvchilar tomonidan turli xil metodlar qo'llanmoqda. Ulardan biri loyiha asosida ta'lim berish (PBL) ya'ni tizimli o'qitish metodlaridan biri bo'lib, o'quvchi, talabalarni murakkab hamda kengaytirilgan savol va amaliy topshiriqlar, shuningdek, ularni ko'proq izlanishga, o'z ustida ishlash orqali hayotiy situatsiyalarda boshqalar bilan muloqot qilishiga asos bo'ladigan hamda rivojlantiradigan innovatsion metodlardan biridir. Ushbu metodning foydali taraflaridan yana biri bu o'quvchining ham shaxsiy, ham jamoaviy uslubda ishlashini rivojlantirishni qamrab olganidir. Bundan tashqari, biz ushbu proyekt ishlar asosidagi metodini talabalarining mustaqil

fikrlay olish qobiliyatini o'stira oladi deymiz. Nega? Sababi shundaki, agar siz o'qituvchi bo'lsangiz darslar davomida ma'ruza qilasiz hamda keyin o'quvchi uchun uyga vazifa sifatida biror dolzarb muammoga yechim topish uchun mavzu biriktirasiz. Natijada, talaba uyda yoki kutubxonada mustaqil izlanish olib boradi, internet saytlardan, turli ilmiy kitob va manbalardan ma'lumotlar izlay boshlaydi, xilma-xil bir-biriga zid faktlarga duch kelgandan so'ng miyasida ularni bir joyga to'playdi, sintez qiladi, shuningdek, o'z fikrini ham bildiradi. Har bir hodisa haqida tasavvur paydo qila olgandan so'ng, ularni tafakkuriga singdiradi keyinchalik darslar davomidagi mustaqil fikrlarini jamoa oldida ham bildira oladi. Shularga asoslangan holda 15 yillik adabiyotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, Buck Institute for Education loyihaga asoslangan o'qitishning yetti asosiy elementini sanab keltirgan hamda ularni "Gold Standart PBL" ya'ni "Loyihalar asosidagi ta'limning oltin standartlari" deb nomlagan. Quyida biz ularning ba'zilarini keltirishimiz mumkin:


- *mulohaza va takrorlash
- *21-asr tajribalari
- *talabalarning mustaqil ovozlari va tanlovlari
- *fikrlashga undovchi savollar va topshiriqlar
- *jamoaviy tajriba
- *ommaviy prezentatsiya

Taniqli pedagog Jon Dewey aytganlaridek "Give the pupils something to do, not something to learn" ya'ni "O'quvchilarga o'qish uchun emas, balki bajarish uchun nimadir bering" shubhasiz, bu ularda ta'limga bo'lgan qiziqishni yanada orttiradi. Chet tillarni o'qitish metodikalarida eng asosiy jihatlardan yana biri shuki, o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishi uchun odatiy tarzda "Poster presentations" ya'ni qo'l mehnati bilan bajarilgan ko'rgazmali qurollarning berilishidir. Bular birinchi navbatda talabalarni amaliy mashqlar bilan ishlash tajribalarini oshiradi va dunyoqarashlarini ham boyita oladi, ikkinchidan esa ularning yashirin yaratuvchanlik qobiliyatlarini ochadi hamda ko'paytiradi. Masalan, ingliz tili darslarida Oila (Family) mavzusida Oila daraxti (Family tree) yasashni oladigan bo'lsak, har bir o'quvchi uni o'zining dunyoqarashiga mos tarzda yaratadi, dizaynlashtiradi hamda an'anaviy tarzda 'daraxt'ga yangiliklar kiritadi. Qaysidir o'quvchi uni bunday tarzda yaratsa:



O'quvchilar yaratgan bunday oila daraxtidagi oddiygina bir oila a'zolarining qay tartirda joylashubidan, shoxlar shakli, rangidan yoki boshqa kiritgan noodatiy yangiliklardan ularning qay darajada kreativligini, e'tiborini baholash mumkin.

Guruhdagi boshqa bir o'quvchi ayni shu vazifani mana bunday usulda ham bajarishi mumkin:



Bularning barchasi aslini olganda faqatgina bir maqsadga xizmat qilishini inobatga oladigan bo'lsak, bu amaliy ishlar o'quvchining darsga qay darajada yondashuvini ko'rsatadi va turli loyihalar asosida o'qitish metodining talaba uchun ham qanchalik foydali bo'lganligini asoslaydi, uning miya faoliyati, yaratuvchanligiga ham ma'lum miqdorda samarali hissa qo'shadi.

Xulosa: Ingliz tilini o'qitish metodikasida qo'llaniladigan innovatsion metodlardan biri bo'lgan turli amaliy proyektlar asosida ta'lim berish metodini darslar davomida samarali qo'llash o'quvchilar hamda butun ingliz tili qiziquvchilarini akademik dunyoni oddiy real hayotga tadbiiq etgan holda va bir-biriga bog'lagan holda tushunishga, o'rganishga imkon yaratadi. Shuningdek, barchamizga ma'lumki, 21-asr ta'limda tobora tanqidiy o'ylashni, kommunikatsiya, hamkorlikni va kreativlikni talab qilmoqda. Biz yuqorida tasniflagan PBL metodi esa aynan mana shu elementlarni barchasini o'z ichiga olganligi uchun ko'pchilik talaba hamda o'qituvchilarga ma'qul bo'lmoqda ya'ni ushbu metod o'quvchilarga o'z xato va kamchiliklarini to'g'rilash uchun, reviziyalar kiritish uchun imkoniyat yaratgan holda ularning ingliz tili darajasini oshiradi. Shuningdek, PBL metodi modellari asrimiz talablariga mos ravishda talabalarlarning texnologik qobiliyatlarini ham kuchaytira oladi ya'ni ommaviy prezentatsiya tayyorlash jarayoni, uning uchun olib borilgan izlanishlar va so'ngida uni barchaga taqdim etish ham ularning texnologiyalar bilan ishlashini shu bilan birgalikda, oddiy talabalarni malakali o'qituvchi, yaxshi notiq bo'lib rivojlanishiga alohida ko'mak beradi. Aynan shu sabablar tufayli ham innovatsion metodlardan biri bo'lgan PBL bugungi kunda dunyo standartlariga javob bera oladigan metod sifatida talqin qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

pblworks.org
powerschool.com
structural-learning.com
chet tili o'qitish metodikasi

GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MA`NAVIYATGA QARSHI TAHDIDLAR

Jabborov Elbek Eshpo`latovich

O`zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Qashqadaryo akademik litseyi o`qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuvning milliy ma`naviyatimizga qanday tahdid solayotganligi haqida so'z borgan.

Kalit so'zlar: globallashuv, integratsiya, fundamentalizm, shovinizm, fashizm.

Bugungi globallashuv sharoitida mamlakatimiz milliy manfaatlarini himoya qilish, xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash, mustaqillikni mustahkamlash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Bunday sharoitda davlatning ma'naviy-axloqiy negizlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy merosining mavqeyini saqlab qolishga erishish lozim. Zero, milliy davlatchiligimiz asoslarida milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida shakllantirilgan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish yotadi.

Globallashuv (lot. globus — shar, yer sayyorasi) — XX asrning ikkinchi yarmi — XXI asr boshida jahon taraqqiyotida shakllangan yangi umumsayyoraviy tartibotlar, davlatlar va kishilar o`rtasida o`zaro aloqalarning kengayishi, dunyo miqyosida axborot makoni, kapital, tovar hamda ishchi kuchi bozoridagi integratsiyalashuv, ommaviy madaniyat namunalari keng tarqalishi, axborot-mafkuraviy va diniy-ekstremistik xurujlar xavfining ortib borishini ifoda etuvchi tushuncha.

Shuningdek, bu tushuncha jahondagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohada o`zaro yaqinlashuvi, birlashuvi, voqea-hodisalarning bir mamlakat doirasidan chiqib, umuminsoniy miqyosga ega bo`lishi, butun yer sharini qamrab olishi bilan xarakterlanadi.

O`zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimov globallashuv atamasiga quyidagicha ta`rif beradi: «Bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo`shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog`lanib borayaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma`noda, globallashuv bu — avvalo hayot sur`atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir».

Milliy ma`naviyatga qarshi tahdidlarning negizini umuminsoniy va milliy axloq, qadriyat, madaniyat, din va tarbiya asoslariga zid bo`lgan, inson shaxsining tubanlashuvi, ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy me`yorlarga rioya etmaslik bilan bog`liq jarayonlar tashkil qiladi.

D.Vilkersonning fikricha, G'arb jamiyatida axloqiy buzuvchilik avj olib borayotganiga sabab kabel televideniyesi orqali g'ayriinsoniy illatlarning keng targ'ib etilayotganligida. Eng xatarlisi shundaki, G'arb mamlakatlari o'z dunyoqarashi, andozalari va hayot tarzini turli-tuman vositalar, xususan, g'oyaviy-mafkuraviy ta'sir orqali o'zga millat va xalqlar turmushiga tiqishtirishga urinmoqda.

Dunyo davlatlari, muayyan kuchlar, markazlar, shaxslar tomonidan o'z manfaatlarini g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan ta'minlash, g'arazli maqsadlarni ko'zlab, mamlakati va o'zga davlat xalqi, ayniqsa, yoshlarini chalg'itish, ularning ongiga g'ayriinsoniy va g'ayriaxloqiy g'oya va qarashlarni singdirishga xizmat qiladigan usul va texnologiyalardan foydalangan holda turli tahdidlarni amalga oshiradi.

Shu bois g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga nisbatan sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashash mamlakatimiz manfaatlarini, milliy an'ana va qadriyatlarimizga yot g'oya va qarashlarning maqsad-muddaolarini teran anglash imkonini beradi, ayniqsa, yoshlarimizni bu kabi xavf-xatarlardan himoya qilish, ma'naviy tarbiya tizimini yanada takomillashtirish ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Ma'naviy tahdidlar deganda tili, dini, e'tiqodidan qat'i nazar, har qaysi insonning erkin bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va information xurujlarni tushunamiz.

Shuningdek, ma'naviy tahdidlar vayronkor kuchlarning o'z moddiy, siyosiy manfaatlarini ko'zlagan holda har xil markazlar tomonidan biron bir mamlakatga nisbatan ichkaridan yoki tashqaridan turib bevosita amalga oshiriladigan ma'naviy buzg'unchilikning muayyan shaklidir. Ular o'z maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning ma'naviy-ruhiy hissiyotlari, milliy tuyg'ulari, har qanday jamiyatda mavjud ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy muammolardan, shuningdek, zamonaviy texnologiya, telekommunikatsiya, OAV, Internetdan ustalik, g'irromlik, noxolislik bilan foydalanishga harakat qiladi.

Ma'naviyatga qarshi qaratilgan har qanday tajovuz, tahdid o'z-o'zidan mamlakat xavfsizligi, uning milliy manfaatlarini, jismonan va ma'nan sog'lom avlod kelajagini ta'minlash yo'lidagi jiddiy xatarlardan biriga aylanishi va oxir-oqibatda jamiyatni inqirozga olib kelishi mumkin.

TAHDIDLAR:

1) **ICHKI TAHDIDLAR:** Loqaydlik, qonunga rioya etmaslik, sotqinlik, mahalliychilik, korrupsiya, boshqalarni mensimaslik, xasad, sotqinlik, befarqlik, mas'uliyatsizlik va h.k.

2) **TASHQI TAHDIDLAR:** Fundamentalizm, shovinizm, fashizm, «ommaviy madaniyat», yot g'oya va mafkuralar, g'oyaviy bo'shliq, ma'naviy va

axloqiy tubanlik, axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, egotsentrizim, narkobiznes, separatizm, irqchilik, milliy-ma’naviy qadriyatlarga bepisandlik bilan qarash va h.k.

Globalashuv jarayonlari ilm, fan-texnika, iqtisodiyot va boshqa sohalar bilan bir qatorda, davlat boshqaruvini demokratlashtirish masalasiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Globalashuv jarayonlari natijasida milliy o‘zlikka xavf soluvchi multimadaniyat kirib keldi. Endilikda uning ta’siri ostida har bir millatga xos bo‘lgan xususiyatlar umumiy madaniyat bilan qorishib ketmoqda. Eng achinarlisi, uning ta’siriga yoshlar tushib qolmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda jamiyatning ma’naviy-axloqiy yuksalishi, fuqarolar, xususan, yosh avlodning ma’naviy-axloqiy kamoloti masalasiga katta e’tibor qaratilib, bu yo‘nalishdagi ishlarning ko‘lamini yanada kengaytirishda aniq maqsad va vazifalar belgilandi. Davlat va jamiyatning uzviy hamkorligida ishlab chiqilgan bu yo‘nalishdagi dasturlar, chora-tadbirlar natijasida, avvalo, o‘zlikni anglash, tarixiy va milliy qadriyatlar, qadimiy urf-odat va an’analarimizni tiklash va ularni yanada boyitish, ajdodlarimiz ruhiga hurmat va ehtirom ko‘rsatish, tarixiy obidalar va qadamjolarining qayta tiklanishi va, eng muhimi, milliy istiqloq g‘oyasiga asos solinishidek qator ijobiy ishlar amalga oshirildi.

Globalashuvning ijobiy va salbiy tomonlari:

1) **Globalashuvning ijobiy tomoni:** Davlatlar va xalqlar o‘rtasida integratsiya va hamkorlik aloqalari kuchaymoqda, kapital, tovarlar erkin harakati uchun katta qulayliklar yaratib berilmoqda, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, ilm-fan yutuqlari tezlik bilan tarqalmoqda, qadriyatlar umuminsoniy negizda uyg‘unlashmoqda. Shu bilan birga, sivilizatsiyalararo muloqot yangicha sifat kasb etmoqdaki, buning natijasida ekologik ofatlar paytida o‘zaro yordam ko‘rsatish imkoniyatlari ortib bormoqda va h.k.

2) **Globalashuvning salbiy tomoni:** Insoniyatni o‘zaro ziddiyatlar girdobiga olib boruvchi, ma’naviyatni qashshoqlashtiruvchi, oxir-oqibatda uni og‘ir fojialarga olib boruvchi yangi «qadriyatlar» shakllanishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda dunyodagi turli mintaqa alqlarining ongi va qalbi turli g‘oyalarni singdirish maydoniga, mafkuraviy poligonga aylantirilmoqda. Markaziy Osiyoda diniy ekstremizm va fundamentalizmni keng tarqatish borasida olib borilayotgan qo‘poruvchilik harakatlari kuchayishiga olib keldi va h.k.

Adabiyotlar:

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” T.: “Ma’naviyat”, 2008.
2. Sayfiyeva. S “Globalashuv jarayonining ijtimoiy hayot sohalariga ta’siri”. T.: “Falsafa va huquq”, 2006.

QASHQADARYO VILOYATI LANDSHAFTNING O`ZIGA XOSLIGI HAMDA UNING XARITADA NAMOYON BO`LISHI

Yahshiboyev Barot Abdulhaqovich
IIV Qashqadaryo akademik litseyi
Umumta'lim fanlar kafedrasida boshlig'i

Annotatsiya: Mazkur maqolada landshaft ta'limotining shakllanishi va uni ekologik muammolarni bartaraf etishdagi roli va ahamiyati atroflicha yoritilgan. Shuningdek, Qashqadaryo viloyati landshaftlarini tavsiflash va xaritaga olish masalalari haqida fikr, mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: Landshaft ta'limoti, landshaft turlari, geologik jarayonlar, ekologik muammolar.

KIRISH

Geografiyaga oid adabiyotlardan ma'lumki, landshaft nemischa so'z bo'lib, ("land" – "yer" va "shaft" – "manzara" degan ma'noni bildiradi [2]. Garchi landshaft ta'limotining paydo bo'lish tarixi nemis olimlariga borib taqalsada, landshaft konsepsiyasi hamda nazariyasi umuman landshaftshunoslik fanining shakllanishi va rivojlanishida rus olimlarning ulkan mehnatlarini alohida qayd etish lozim. Landshaft haqidagi g'oya va ta'limotni vujudga kelishida V.V.Dokuchaev va uning ilmiymaktabi namoyondalarining xizmatlari katta bo'lgan. O'zbekistonda ham bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, landshaftshunoslik borasida ulkan tajribaga ega Sh.S.Zokirov va X.R.Toshovlarning [3] ta'kidlashlariga ko'ra, mamlakatimizda landshaftshunoslikka oid dastlabki ilmiy izlanishlar o'tgan XX asrning 50-yillari oxirida L.N.Babushkin va N.A.Kogay tomonidan O'zbekiston hududini qishloq xo'jaligi maqsadlarida tabiiy geografik rayonlashtirish mavzuida amalga oshirilgan tadqiqotlari bilan boshlangan. L.N.Babushkin va N.A.Kogaydan so'ng mamlakatimizda landshaftshunoslik ta'limoti asosidagi ilmiy faoliyatni rivojlantirish bilan L.Alibekov, P.G'ulomov, A.Rafikov, A.Abulqosimov, M.Umarov, Sh.S.Zokirov, X.R.Toshov va boshqalar shug'ullanganlar va bu boradagi izlanishlar hozirda ham jadal davom ettirilib kelinmoqda [1-4].


ASOSIY QISM

Markaziy Osiyo mintaqasi geologik jihatdan uzoq o'tmishlarda murakkab rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirganligi uchun o'ziga xos turli landshaftlardan tarkib topgan [2]. Xususan, resublikamizning janubiy-g'arbida joylashgan Qashqadaryo viloyati landshaftlarning strukturali-dinamik holati va qiyofasining o'zgachaligi ayrim geografik rayonlar tomonidan e'tirof etilgan. Qashqadaryo landshaftlarining o'ziga xosligi va turli-tumanligining asosiy sababi geologik davrlarda

geologik, geomorfologik hodisalar va inson faoliyatining ta'siri hisoblanadi. Qashqadaryo zamini tekislik, tog' oldi va tog'li hududlaridan iborat bo'lib, ularda respublikaning boshqa yerlarida uchramaydigan Kichik Osiyo, Eron, Afg'oniston va boshqa sharq mamlakatlariga xos bo'lgan ayrim landshaft turlari tarqalgan [4]. Viloyatning landshaft strukturasi murakkab bo'lganligi sababli bu yerdagi tabiiy geografik sharoitlar ham shunga monand xilma-xillik kasb etgan. Qashqadaryo viloyatining shimoli-sharqi tog' va tog' oldi, sharq va shimoli-g'arbiy qismlari tekisliklardan (asosan cho'llar dan) tashkil topgan.

Qashqadaryo viloyatining tog'li mintaqalarida nival, o'tloqi dasht, o'rmon landshaftlari keng tarqalgan bo'lsa, tog' oldi hududlarida lyosli va chala cho'li landshaftlar uchraydi shuningdek, tekislik qismlari asosan cho'l (gipsli, gilli, sho'rxoksimon va boshqa.) landshaftdani bilan qoplangan. Viloyatda tarqalgan landshaftlarni tasvirlash va ular haqida kengroq tasavvur hosil qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tasarrufidagi "Kartografiya" ilmiy-ishlab chiqarish davlat korxonasi 2016-yili nashr etilgan Qashqadaryo viloyati o'lkashunoslik atlasidagi ayrim ma'lumotlaridan foydalangan holda, hududning aerokosmik suratlarini deshifrovka qilish orqali Qashqadaryo viloyatining landshaft xaritasi tuzildi. Zero, V.G.Isachenko ta'kidlaganidek [1] landshaftlardagi o'zgarishlarni va yuzaga kelgan muammolarni yaqqol namoyon etishda, ularni tahlil qilish va ilmiy xulosalarni chiqarishda kartografik asarlar (xarita, atlas va boshq.) ustuvor hisoblanadi.

1-rasm. Qashqadaryo viloyati landshaft xaritasi



XULOSA VA MUNOZARA

Jahon miqyosida kechayotgan hozirgi globallashuv va ilmiy- texnik taraqqiyot o'zining yuqori cho'qqisiga chiqqan va inson manfaatlari o'z ifodasini topib borayotgan davrda tabiat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar har qachongidan ham keskinlashgan, hamda buning oqibatida landshaftlarda turli salbiy o'zgarishlar yuz berib, ulardagi ekologik muammolar tobora jiddiy tus olayotgani hech kimga sir emas. Mazkur ekologik muammolar xususan, tabiat resurslarning qashshoqlanishi va landshaftlarida kechayotgan salbiy o'zgarishlar respublikamiz uchun ham halokatli oqibatlarni keltirib chiqarishi va ekologik tanazzulga olib kelishi mumkin. Mavjud salbiy jarayonlar tarqalishini inobatga olsak, muammoga landshaft ta'limoti yuzasidan yondashish hamda vaziyatni barqarorlashtirish yo'lida ilmiy yechimlarni izlash, ularni amalda qo'llash, bugungi kunning dolzarb va ustuvor vazifasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nazarov I.Q. Geografiya fanining asosiy muammolari - Toshkent: "Muharrir", 2013 y. 106-110 b.
2. Zokirov SH.S., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. 2016 y. 200 b.
3. Murodova D.S. Qashqadaryo viloyati iqtisodiy geografiyasi – Qarshi: 2017 y. 4-18 b.
4. Qashqadaryo viloyati o'lkashunoslik atlas. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi. Toshkent, 2016 y

IJODIY RIVOJLANISH FAOLIYATI ORQALI BOLALARDA BADIY IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKILLANTIRISH

Ortiqova Gulshan Toshpo'latovna

*Buxoro pedagogika kolleji "Maktabgacha ta'lim"
Kafedrası "Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash"
o'quv amaliyoti o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolda maktabgacha yoshidagi bolalarda ijodiy qobiliyat xususiyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishi, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishi uchun zamin bo'lgan sifatlarning mavjudligi va mustaqil fikrlash ko'nikmasining taraqqiyoti bolaga ta'lim jarayonidagi turli vaziyatlarga muvaffaqiyatli moslashish, o'zgargan holatlarni anglay olish hamda o'zining bilish jarayonlari va xulq-atvorini unga mos tarzda yo'naltira olish imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy qobiliyat, pedagogik faoliyat, kreativ shaxs, ijodiy, mustaqil fikrlash, ijodkor ijodiy qobiliyatlar, maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Annotation: In this article, the importance of developing creative abilities in preschoolers, the presence of qualities that underlie the development of creative abilities and the development of independent thinking skills, help the child to successfully adapt to various situations of the educational process. about the possibilities of managing Zina's cognitive processes and behavior in the way that suits him.

Keywords: Creative ability, pedagogical activity, creative personality, creative, independent thinking, creative creative abilities, preschool organization

Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida tarbiyachilarning oldiga yangicha kasbiy va shaxsiy sifatga ega bo'lish vazifasi qo'yilmoqda

Bolaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va yaxshilash hammaga ma'lum narsalarni o'zgartira olishi va ijodiy foydalana bilish, sifat jihatdan yangiliklarni yaratish juda katta ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bolaning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, albatta, uning bevosita faoliyatida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning **ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar** bolaning shaxsini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sohada olimlar va psixologlar tomonidan olib borilgan barcha tadqiqotlar, ijod qobiliyatiga ega bo'lgan bolalarning yanada barqaror ruhga ega ekanligi, ular bilan muloqot qilish va do'stona munosabatda bo'lishlarini isbotlaydi. Kichik yoshda,

kompleks rivojlanishga, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning adabiy, badiiy va musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi. O'yin orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish eng yaxshisidir.

Mutaxassislarining fikricha, bolalar ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga quyidagi omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin:

- ijodkor kishilar bilan muloqot ko'lamining kengligi;
- taqlid uchun namuna bo'la oladigan kattalar olamining mavjudligi;
- ota-ona va bolalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning demokratik uslubga ega ekanligi;
- bolaga hissiy jihatdan o'zini namoyon etish uchun imkoniyat berilishi;
- kattalarning faol va arboblarga xos maqomi;
- bolalarni mustaqil mehnatga erta jalb qilinishi;
- turli to'garaklarga jalb qilish orqali ijodiy faoliyatga yo'naltirish;
- o'z tajribasidagi yangi ma'lumotlarni bilishdan quvonishi;
- bolalarning tadqiqotchilik ishiga ijobiy munosabatda bo'lishi;
- bolalar faoliyatidagi yutuqlarni o'z vaqtida rag'batlantirish;
- intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish bo'yicha tegishli mashqlar bilan shug'ullanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish va boshqalar.

Ijodiy qobiliyatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etuvchi omillar bilan bir qatorda uning taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi holatlar ham mavjud.

Ota- onalarga tavsiyalar:

- bolangizning dunyoqarashini boyitish, ijodiy rivojlantirish maqsadida ko'proq har xil voqealarga boy kitoblarni o'qib bering;
- o'zingizning kasbingiz haqida gapirib bering va ishxonangizga sayrga olib boring, kasb tanlash ehtiyoji tug'iladi;
- bolangizni tez-tez sayrlarga olib chiqing, ijodiy rivojlanadi;
- sayr vaqtida tabiatdagi ranglar, predmetlar va hayvonot dunyosi haqida to'liq tushuncha bering, ekologik tarbiyasi oshadi;
- bolangiz savol bersa urushmang, savollariga to'liq javob bering, ongi o'sadi;
- bolangizni mustaqil ish qilishga o'rgating, u katta bo'layotganini his qilsin;
- bolangizga oilasini sevishga, ardoqlashga o'rgating, zero Vatan ostonadan boshlanadi;

Shunday qilib, bolalar ijodiy qobiliyatlarini uning ijtimoiy-psixologik taraqqiyoti mahsuli bo'lib, muntazam o'zaro ta'sir etib boruvchi ko'plab omillarning inson ruhiyatiga ta'siri natijasi hamda ta'limga pedagogikpsixologik tayyorlikning eng muhim ko'rsatikichidir. Ijodiy rivojlantirish omillari bolaning ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, ijodiy qobiliyat maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Qobiliyatlarni shakllantirish haqida gapirganda, bolalarning ijodiy qobiliyatlarini qaysi yoshda rivojlantirish kerakligi masalasiga to'xtalib o'tish kerak. Psixologlarda ijodiy qobiliyatlarni juda erta yoshdan boshlab rivojlantirish kerak degan faraz mavjud. Bu gipoteza fiziologiyada o'z tasdig'ini topadi. Bolaning miyasi ayniqsa tez o'sadi va hayotining birinchi yillarida "pishadi". Bu kamolot, ya'ni miya hujayralari sonining o'sishi va ular orasidagi anatomik bog'lanishlar mavjud tuzilmalar ishining xilma-xilligi va intensivligiga ham, yangilarining shakllanishiga atrof-muhit tomonidan qanchalik rag'batlantirilishiga bog'liq. Psixologik nuqtai- nazardan, maktabgacha yoshdagi bolalik ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu yoshda bolalar o'ta izlanuvchan, ularda atrofdagi dunyoni o'rganishga intilish kata bo'ladi. Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun asos - bu birinchi navbatda erkinlikdir.

Ota-onalar bolani majburlamasliklari kerak. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun sabrtoqat va muayyan taktika talab etiladi - ota-ona bolaning fikrini tinglashi, har qanday ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishi kerak. Ota-onalar va o'qituvchilar qiziquvchanlikni rag'batlantirish, ularga bilim berish, turli tadbirlarga jalb qilish orqali bolalar tajribasini kengaytirishga hissa qo'shadilar. Tajriba va bilimlarni to'plash kelajakdagi ijodiy faoliyat uchun zaruriy shartdir. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarning fikrlashlari katta yoshdagi bolalarnikiga qaraganda ancha erkindir. Bolalar ijodkorlikni namoyon qilishi uchun ularga ushbu xususiyatlarning barchasi birlashtirilishi kerak. Bizga ma'lumki maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar ijodkorligini rivojlantirish bo'yicha turli mashg'ulotlar tashkil qilinib bolalar ijodiy fikrlashga yo'naltiriladi. Ota-onalar bolani majburlash va majburlamasliklari kerak. Bu borada muvaffaqiyatga erishish uchun sabr-toqat va muayyan taktika talab etiladi. Ota-ona bolaning fikrini tinglashi, har qanday ijodiy faoliyatga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirib borish kerak.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, ta'limda ijodiy qobiliyat shunchaki bir ehtiyoj emas, balki uning avangardidir: Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish uchun asos - bu birinchi navbatda erkinlikdir. Bolalarning ijodiy rivojlanishining muhim sabablaridan biri ularning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [qarori](#).

3. “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta’lim Vazirining buyrug‘i. Ro‘yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.
4. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun Davlat o‘quv dasturi, to‘ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.
5. Grosheva I., Shivaldova N., Rizayeva X., Kuryayeva I., Nekrasova Y., Xaziyeva L. Ekologik ta’lim va tarbiya bo‘yicha Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun “Yer sayyorasi – umumiy uyimiz” parsial dasturi. Toshkent-2022.
4. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Usmonova D., Ashrabxo‘jayeva M., Rizayeva X., Nuritdinova L., Karimova F., Nurmuhamedova G., Muhamadaliyeva M., Musayeva G., Gayfulina F. “Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh)”. Toshkent-2018.
6. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Isxakova M., Kim N., Rizayeva X., Kayalova Y., Nuritdinova L., Maxmudova V., Vlasova Y., Buyanova N., Daukayeva A., Karimova F. “Maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim jarayonini mavzuli rejalashtirish”. Toshkent-2018.
7. O‘.Q.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari.-T.: «Fan»2006 yil, 298b. 2. Egamnazarova Sh. M. “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” Ilim ziyo T.: 2016y.
8. Sodiqova SH.A. Maktabgacha ta’limda markazlar faoliyati va uslubiyoti. T.: 2022yil.
9. Alieva E.G. Ijodiy qobiliyat va uning rivojlanish shartlari // Ta’lim faoliyatini psixologik tahlil qilish M.: IPRAN. 1991.
10. Ponomarev Ya.A. Ijodiy fikrlash psixologiyasi.- M., 1960
11. Vygotskiy L.S. Ta’lim psixologiyasi // Psixologiya: klassik asarlar. № 3. - M., 1996.
12. Azarova L.N. Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining ijodiy individualligini qanday rivojlantirish kerak // Boshlang‘ich maktab, 1998 yil, 4-son 80-81 betlar.

ANALYSIS OF MAIN THEMES IN SHAKESPEARE'S TRAGEDY HAMLET

Umaraliyeva Munojat Mashrabovna

*A senior teacher of English language and literature faculty of
Ferghana State University*

Rahmonova Dilyoraxon Baxodir qizi

*4 th -year student of English language and literature faculty of
Ferghana State University*

Abstract: Hamlet is a complex and multi-layered work that explores a variety of themes. This article provides an analysis of the main themes present in the play, including revenge, madness, morality, and the complexity of human nature. It examines how these themes are developed throughout the play and how they contribute to the overall meaning and impact of the work. Through this analysis, we gain a deeper understanding of the enduring relevance and power of Hamlet as a work of literature.

Keywords: madness, morality, revenge, tragedy, Shakespearean tragedy, Hamlet, sense, death, human nature

Annotatsiya: “Gamlet” murakkab va ko‘p qatlamli asar bo‘lib, turli mavzularni o‘rganadi. Ushbu maqolada asarda mavjud bo‘lgan asosiy mavzular, jumladan qasos, jinnilik, axloq va inson tabiatining murakkabligi tahlil qilinadi. Bu mavzular asar davomida qanday ishlab chiqilganligi va ular asarning umumiy ma‘nosi va ta‘siriga qanday hissa qo‘shishini o‘rganadi. Ushbu tahlil orqali biz Gamletning adabiyot asari sifatidagi abadiy dolzarbligi va qudratini chuqurroq anglaymiz.

Kalit so‘zlar: jinnilik, axloq, qasos, fojia, Shekspir tragediyasi, Gamlet, his, o‘lim, inson tabiati

Описание: «Гамлет» — сложная и многоплановая пьеса, раскрывающая различные темы. В данной статье анализируются основные темы, присутствующие в пьесе, включая месть, безумие, мораль и сложность человеческой природы. В нем рассматривается, как эти темы развиваются на протяжении всей работы и как они способствуют общему смыслу и воздействию работы. Благодаря этому анализу мы получаем более глубокое понимание вечной актуальности и силы «Гамлета» как литературного произведения.

Ключевые слова: безумие, мораль, месть, трагедия, трагедия Шекспира, Гамлет, смысл, смерть, человеческая природа.

INTRODUCTION

William Shakespeare was an English playwright, poet and actor. He is widely regarded as the greatest writer in the English language and the world's pre-eminent

Ko'plab tadqiqotchilar ushbu sohada tadqiqotlar olib borishdi va muvaffaqiyatli natijalarni ko'rsatdilar. Ushbu o'quv modeli o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini oshirishga, mustaqil ta'lim olishda talabalar motivatsiyasini rag'batlantirishga va o'quvchilarning o'z-o'zini o'rganish xatti-harakatlarini faollashtirishga qodir [8]. Qayta o'qitishni amalga oshirish o'quvchilarning o'rganish qobiliyatini va natijalarini yaxshilashi mumkin. O'z-o'zidan teskari ta'limni amalga oshirish XXI asrda talabalarning ehtiyojlariga mos ravishda o'rganishni amalga oshirishga qaratilgan harakatdir. Talabalar sinfda o'rganishdan oldin sinfdan tashqarida o'rganadigan ikki bosqichda amalga oshirilgan an'anaviy o'quv jarayonini bekor qilish. Sinfdan tashqari o'quv jarayoni Google classroom yordamida o'quv videolari, quvvat nuqtalari va boshqa o'quv resurslarini taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Sinfdan tashqari materiallarga kirish va topshiriqlarni bajarish orqali talabalarning fikrlash qobiliyatini oshirish uchun talabalarning faol roli talab qilinadi. The

Ta'limni sinfda amalga oshirish muammolarni topish, hamkorlik qilish, loyihalash va muammolarni hal qilish, guruhlarda ishlash, tadqiqot va o'qituvchilar va tengdoshlar yordamida bilimlarni shakllantirish faoliyatiga qaratilgan. Joriy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, teskari ta'limni amalga oshirish talabalarning iqtisodiy fanlar bo'yicha o'quv natijalarini yaxshilashi mumkin.

Adabiyotlar:

1. Ash, K. (2012) O'qituvchilar "aylantirilgan" modelga ko'proq tanqidiy ko'z bilan qarashadi. Ta'lim haftaligi, pS6-S7
2. Aşıksoy, G. L. M., & Özdamlı, F. (2016). Motivatsiyaning ARCS modeliga moslashtirilgan va fizika kursiga qo'llaniladigan o'zgartirilgan sinf xonasi. Matematik, fan va texnologiya ta'limi Evrasia jurnali, 12(6), 1589-1603.
3. Bergmann, J. va Sams, A. (2014). Flipped learning: yuz vaqtini maksimal darajada oshirish. Ta'lim va rivojlanish, 68(2), 28–31

4. Gardner, H. (2008). Kelajak uchun beshta fikr. Boston, MA: Garvard Business Press.
5. JiaSuo&XiuyingHou (2017). Kollejning ingliz tilini o'g'irgan sinfida motivatsion strategiyalar bo'yicha tadqiqot. Ingliz tilini o'rgatish. 10(5) 62-67v
6. Oblinger, D. (2004). Ta'lim bilan shug'ullanishning keyingi avlodi. Ta'limda interaktiv ommaviy axborot vositalari jurnali, 2004 (1).
7. Rani Sofiya, Rani Sahara. (2020) O'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash uchun Google Classroom'dan foydalangan holda "Flipped Classroom"ni optimallashtirish. Iqtisodiyot, biznes va boshqaruv tadqiqotlaridagi yutuqlar, v 152. Atlantis Press
8. Yanxia Du (2020). Flipped Classroom Modeli ostida kollej talabalarining ingliz tilini avtonom o'rganish qobiliyatini rivojlantirish bo'yicha o'rganish. Ingliz tilini o'rgatish 13 (6), 13-19

ГРАММАТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РУССКОГО ЯЗЫКА: АНАЛИЗ И ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ РАСПРОСТРАНЕННЫХ ОШИБОК

Исамова Гульназа Бахтияровна
Асатуллаев Рустамжон Бахтиярович
Rustam.asatullaev2702@gmail.com

Введение

Русский язык известен своей сложной грамматической системой с многочисленными грамматическими аспектами, которые могут быть сложными для изучающих. Цель этого эссе - проанализировать и устранить распространенные ошибки в русской грамматике, сосредоточив внимание на наиболее распространенных ошибках, допускаемых не носителями языка. Выявляя эти ошибки и предлагая стратегии их предотвращения, данное исследование призвано улучшить изучение языка и способствовать правильному использованию русского языка. Благодаря всестороннему анализу грамматических аспектов это эссе прольет свет на проблемные области, с которыми сталкиваются учащиеся, и предложит практические решения для улучшения. Понимание этих распространенных ошибок и устранение их может способствовать общей эффективности языкового образования и способствовать лучшему общению на русском языке.

II. Распространенные грамматические ошибки в русском языке

Одной из распространенных грамматических ошибок в русском языке является неправильное использование падежей при склонении существительных.

1. Использование падежей при склонении существительных.

Русские существительные имеют шесть падежей, каждый из которых указывает на роль существительного в предложении. Однако учащиеся часто испытывают трудности с правильным назначением соответствующего падежа существительному в данном предложении. Например, когда существительное является прямым объектом глагола, оно должно быть в винительном падеже, но учащиеся могут ошибочно использовать именительный падеж. Эта ошибка может повлиять на ясность и точность предложения. Другой распространенной ошибкой является неправильное использование спряжения глаголов. Спряжение русских глаголов сложное, включающее изменения основы и суффикса глагола в зависимости от подлежащего, времени, вида и наклонения. Учащиеся часто испытывают трудности с запоминанием различных форм, что приводит к неправильному спряжению глаголов.

2. Правописание после предлога "в" или "на":

Ошибка в использовании падежей после предлогов "в" и "на" часто происходит из недостаточного осознания контекста. Описывая различные сценарии, авторы выделяют ключевые моменты согласования, помогая читателю лучше понять, почему "в театре" и "на работе" – правильные конструкции.

3. Согласование прилагательных с существительными:

Детальное рассмотрение правил согласования прилагательных с существительными, включая род, число и падеж, подчеркивает важность точного сочетания слов в предложении. Приводятся примеры правильных и неправильных конструкций для наглядности.

4. Использование "что" вместо "который":

Ошибка в замене относительного местоимения "который" на "что" может привести к потере ясности и логической связности в предложении. Путеводитель по различиям между этими местоимениями предоставляет ясные примеры и контексты использования.

5. Путаница между "есть" и "есть у":

Исследование различий между "есть" и "есть у" помогает разъяснить, когда и как правильно применять эти конструкции. Описываются сценарии, в которых каждая из них наиболее уместна, предупреждая от частых недоразумений.

6. Различие между "чем" и "чем-то":

Подробное описание различий между "чем" и "чем-то" освещает тонкости их использования. Авторы предоставляют контексты, где каждая из форм является наиболее подходящей, и подчеркивают важность точности в выборе.

Из-за этих грамматических ошибок предложения на русском языке могут звучать неуклюже или сбивать с толку носителей языка и препятствовать навыкам эффективного общения. Понимание и устранение этих распространенных ошибок может значительно повысить уровень владения русским языком и помочь им более эффективно общаться на этом языке.

iii. Анализ грамматических ошибок в русском языке

Анализ грамматических ошибок в русском языке выявляет несколько распространенных ошибок, допускаемых учащимися. Одной из распространенных ошибок является неправильное использование спряжения глаголов. Русские глаголы имеют сложную систему спряжений, основанную на лице, числе и роде, освоить которую не носителям языка может быть непросто. Еще одна распространенная ошибка - неправильное использование падежей. В русском языке есть шесть падежей, каждый из которых выполняет определенные грамматические функции, и правильное их использование имеет решающее значение для точной коммуникации. Кроме того, неправильное использование порядка слов, особенно в сложных предложениях, может привести к

грамматическим ошибкам. Понимание этих распространенных ошибок и их избежание необходимы для достижения свободного владения русским языком.

IV. Предотвращение распространенных грамматических ошибок в русском языке

Чтобы предотвратить распространенные грамматические ошибки в русском языке, важно сосредоточиться на определенных ключевых областях, вызывающих трудности. Одной из таких областей является правильное использование падежей, поскольку русский язык с высокой степенью склонения имеет шесть грамматических падежей. Склонение существительных - один из аспектов, требующий пристального внимания, особенно при определении подходящего падежа для существительных в различных грамматических контекстах. Еще одна распространенная ошибка возникает из-за путаницы между формами существительных мужского и женского рода, что приводит к неправильному согласованию с прилагательными и глаголами. Кроме того, спряжение глаголов является серьезной проблемой, поскольку русские глаголы спрягаются в соответствии с временем, видом и наклонением. Осознание этих специфических областей и последовательная практика могут помочь изучающим русский язык избежать распространенных грамматических ошибок и развить более точные языковые навыки.

V. Заключение

В заключении, анализ грамматических аспектов русского языка и предотвращение распространенных ошибок имеют решающее значение для достижения высокого уровня владения языком. Понимая различные грамматические правила и структуры, учащиеся могут улучшить свои коммуникативные навыки и избежать совершения ошибок. Кроме того, знание распространенных ошибок позволяет учащимся проактивно выявлять и исправлять свои собственные ошибки. В этом эссе были рассмотрены несколько ключевых аспектов русской грамматики, таких как склонение существительных, спряжение глаголов и порядок слов, и выявлены наиболее частые ошибки, допускаемые учащимися. Благодаря такому анализу учащиеся могут лучше понять и преодолеть эти трудности, что приведет к более точному и эффективному общению на русском языке. Продолжение изучения и практики этих грамматических аспектов будет способствовать более высокому уровню беглости и владения русским языком.

Использованные литературы:

- Фаина Ивановна Карташкова. "Междисциплинарная лексикография". Традиции и вызовы XXI века, Ольга М. Карпова, издательство Cambridge Scholars, 8/11/2014
- Зита РГер. "Детский язык". Том 8, Кейт Э. Нельсон, издательство "Психология Пресс", 24.10.2018
- Дж. Л. Лайд. "Русско-английский частотный словарь - необходимая лексика". 2500 наиболее употребляемых слов и 520 наиболее распространенных глаголов + грамматика, Независимая издательская платформа CreateSpace, 3/5/2017

SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO‘NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI

Turanboyev Boburjon

Qo‘qon universiteti “Xalqaro turizm va iqtisodiyot” kafedrasida o‘qituvchisi.

e-mail: boburturonboyev@gmail.com

Annotatsiya

Ilmiy tadqiqotimizda ishlab chiqarish faoliyatida insonlar atrof muhitga zarar yetkazishlari keskinlashuvi oqibatida, ya'ni suv va havoning ifloslanishi, qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni hisobsiz va samarasiz foydalanish oqibatida, ularning yo'qolib ketish xatarlari oshib, natijada qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarning yo'qolib ketish ehtimoli yuqorilab ketayotgan davrda ushbu tabiiy resurslardan oqilona va samaraliroq foydalanishni soliqlar vositasida nazorat qilish kerakligi ilmiy asoslantirilgan. Bugungi kunda soliqqa tortish siyosatimizda mavjud bo'lgan, resurs soliqlari: suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qaridan foydalanganlik uchun soliq va yer soliqlarining amaldagi holati tahlil etilgan. Tadbirkorlarni tabiiy resurslardan unumli va tejamkorona foydalanishga undash uchun soliq siyosatida resurs soliqlarining ta'sirchanligini yanada oshirish va takomillashtirish uchun ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: ekologik soliqlar, resurs soliqlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, yer qaridan foydalanganlik uchun soliq, yer solig‘i, soliq stavkasi, soliq tushumi, soliq tushumlardagi ulushi.

Kirish.

Jamiyatda insonlarning ehtiyojlari cheksizligi va tabiiy resurslarning cheklanganligi, ular ko'pchiligining qayta tiklanmasligi mavjud tabiiy resurslardan samarali va oqilona foydalanish evaziga jamiyatning cheksiz ehtiyojlarini to'liqroq qondirishga erishish zaruratini taqozo etadi. Hamda iqtisodiy o'sishning tezligi hisobiga sanoatning rivoji ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatishini oldini olish zaruriyati yuzaga keladi. Musaffo tabiatni himoyalash hamda tabiiy resurslardan unumli foydalanish va tejamkorlikni kuchaytirish uchun ekologik soliq siyosatini olib borish samaraliroqdir.

Mustaqil O'zbekiston yirik sanoat va agrar mintaqaga bo'lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashina sozlik, energetika, kimyo, oziq – ovqat sanoati, transport majmuyini yanada rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi Respublikada ijtimoiy – ekotizimlarning holatiga muayyan darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi (Shodimetov 1991).

O'zbekiston Respublikasi Statistika davlat qo'mitasi rasmiy saytidan olingan ma'lumotlarda qayd etilishicha Respublikamizda atmosferaga chiqarilgan zararli moddalar miqdori oz emas, bu ifloslanish keskin pasaymagan. Yurtimizda o'rtacha xisobida yiliga 900 ming tonna zararli moddalar ishlab chiqarilmoqda. Bunday zaharli moddalarni kamaytirish va tartibga solish uchun ekologik soliqqa tortishni yanada rivojlantirishimiz zarurdir.

Adabiyotlar sharhi.

Amundsen va Schblar (1999) qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarni isrof qilmaslik va tejash uchun ekologik soliqni joriy qilish kerakligini o'z ilmiy tadqiqotlarida asoslashgan. Shuningdek ekologik soliqlar resurslarning tiklanishiga ta'sir etuvchi omil ekanligini e'tirof etib, garchi ekologik soliq siyosati yuqori darajada amalga oshirilayotgan davlatlar resurslarning tiklanish darajasi unchalik yuqori bo'lmasa xam, ekologik soliq tabiiy resurslarni qayta ishlashni rag'batlantirishi mumkinligini va u Yevropada ekologik siyosatning muhim qismi sifatida resurslarni tejashni rag'batlantirishning eng samarali yo'li ekanligini qayd etishgan. Ekologik soliqlarni amalda qo'llash va undirish tabiiy resurslari tugab borayotgan mamlakatlar uchun qulayligi haqida xulosalar qayd etishgan.

Har doim resurslar cheklanganligi sababli ularni tejash davlatning asosiy maqsadi bo'ladi. Hukumatlar buning uchun ko'plab chor-tadbirlar qo'llab kelmoqdalar. Shu asnoda Aksel, Greenelar (2011) tomonidan qayd etilishicha, xukumat atrof muhit bilan bog'liq muammolarni kamaytirish choralari doimiy izlaydi. Bunda hukumat bir qator vositalarga ega, masalan axborot dasturlari, innovatsion siyosat, atrof muhit uchun subsidiyalar va atrof muhit solig'i. Xususan soliqlar ushbu vositalarning eng muximi xisoblanishi haqida ko'plab ijobiy fikrlar bildirishgan.

Atrof muhit solig'i orqali ekologik va iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin. Ya'ni davlat daromadini oshirish va chiqindilarni yo'q qilish, suv va havo ifloslanishi kabi ko'plab muommolarini hal etishda muvaffaqiyatli foydalanish kerak. Siyosat sohasidan qat'iy nazar ekologik soliqlar, mamlakat iqtisodiyotini loyihalashda va uni amalga oshirishda umumiy muvaffaqiyatning hal etuvchi omili hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Dissertatsiya ishi ilmiy izlanish jarayonida muommoni keng ko'lamda yuzaga chiqarishga doir ko'plab xorijiy adabiyotlar hamda rasmiy ma'lumotlardan foydalanilgan holda mazmunan boyitildi. Mahalliy va xorijiy rasmiy saytlari hamda xorijiy ilmiy maqolalar manbalaridan olingan ma'lumotlar miqdor ko'rsatkichlari tahlil qilinib, sifat ko'rsatkichlari baholandi. Hamda ushbu ma'lumotlar jadvallar va rasmi diagrammalarda tasvirlanib, taqqoslash orqali ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot paradigmasi sifatida positivistik yo'nalish tanlanib, unda soliqqa tortishning ekologiyaga yo'naltirilganligini yanada kuchaytirish bo'yicha xorijiy amaliyotini chuqurroq izohlab tahlil qilishga ustuvorligini o'zida ifoda etadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Ekologik soliqlarni joriy etish va ulardan samarali yo‘l bilan ko‘plab maqsadlarda foydalanayotgan davlatlar kundan-kunga ko‘payib ketmoqda. Bunday davlatlarning aksariyati iqtisodiy jihat gigant davlatlar va ular rivojlangan davlatlardir. Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoy xalq respublikasi, Kanada va boshqa ko‘plab davlatlarda mana shunday ekologik soliqlarni ham byudjet tushumlarini oshirishda ham ekologiyani himoyalash, tabiiy resurslardan oqilona va samarali foydalanish maqsadida rivojlantirayotganliklariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu paragrifimizda, yetuk rivojlangan Xitoy Xalq Respublikasi hamda Yevropa Ittifoqi davlatlarining tajribalari tahliliy natijalarini o‘rganamiz.

1960-yillarda sanoatning jadal rivojlanishi oqibatida, ko‘plab mamlakatlarda atrof muhitning ifloslanishi keskinlashib ketdi va tabiiy resurslardan foydalanishda tejamkorlikka e‘tibor qaratilmadi. Ishlab chiqarish faoliyatida insonlar atrof muhitga zarar yetkazishi keskinlashdi, ya‘ni suv va havoning ifloslanishi, qayta tiklanmaydigan tabiiy resurlarning yo‘qolib ketish hatarlari oshib bordi. Bularning natijasida insoniyat katta va hal etib bo‘lmas ekologik muommalarga duch kelish ehtimoli judayam kuchaydi. Bunday holatni yumshatish va atrof muhitni ekologiyani himoya qilish maqsadida, ayrim davlatlar tomonidan atrof muhitni himoyalash va qayta tiklanmaydigan resurslardan samarali foydalanishni nazorat qilishda – soliq vositasidan foydalanishga ko‘proq e‘tibor qaratildi.

Bunday davrda yetakchi sanoatlashgan davlatlardan bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi va Buyuk Britaniya davlatlarining markaziy hukumati ham atrof muhit himoyasi va iqtisodiy yuksalish siyosatini qo‘llab-quvvatlovchi dasturlar ishlab chiqa boshladi. Dastlab, ekologik soliqlarni joriy etilmagan, lekin ekologik xususiyatga ega bo‘lgan yig‘imlar va jarimalar joriy etgan holda ekologiyani asrash va tabiiy resurslarni tejamkorlik bilan hamda samarali foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatdilar. Bu jarayonlar ekologik soliqqa tortish siyosatini boshlanishiga va rivojlanishiga mustahkam asos bo‘lib hizmat qildi.

So‘nggi yillar davomida Xitoy o‘z iqtisodiyotini kengaytirishi va iqtisodiy o‘sish suratlarning judayam tezligi Xitoy ekologiyasiga katta salbiy bosimni keltirib chiqardi. Bu ekologik muommolar sog‘liqni saqlash sohasining faoliyatini bir muncha qiyinlashtirib kelmoqda.

O‘lkadagi tadbirkorlik faoliyatidan xosil bo‘layotgan zaxarli moddalar va tutunlar, havoning zaharlanishi sezilarli ta‘sir ko‘rsatib borishi 2010-2013 yillarda jamoatchilikning haqli e‘tiroziga sababchi bo‘ldi va Xitoy hukumati atrof-muhit zaralanishiga qarshi “urush“ e‘lon qildi. Ekologik tozalikning barqarorligini ta‘minlash uchun ishlab chiqarishda toza manbalardan foydalanishni tezlashtirish bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rish maqsadi bilan keskin qarorlar qabul qilindi va ekologik soliqlarni joriy etishni rivojlantirdi.

Xitoy Xalq Respublikasining soliqqa tortish siyosatida mavjud bo'lgan, ekologik jihatdan bog'liq bo'lgan soliqlar quydagilardan iborat (1-jadval).

Xitoy hukumati tomonidan 1979-yildan shu bugungi kungacha, tadrijiy ravishda ekologiyani himoya qiluvchi vazirliklar va agentliklar tashkil etib, ko'gina hukumat qarorlarini qabul qilindi. Shu bilan birgalikda ekologik harakterga ega bo'lgan soliqlar ham bosqichma-bosqich joriy etildi (1-jadval). Ushbu soliqlar ekologiya, suv va havoning ifloslanishi hamda tabiiy resurslardan unumli foydalanishga tadbirkorlarni undashi bilan boshqa soliq turlaridan ajralib turadi. Masalan, quruqlikdagi va suvdagi transportlar uchun joriy etilgan soliqlar ularni sotib olishdan tortib, qay maqsadda foydalanishga qarab soliqqa tortiladi.

1-jadval**Xitoy Xalq Respublikasida ekologik soliqqa tortish xususiyatiga ega bo'lgan soliqlar.**

№	Soliq turlari	Soliq solish obyekti
1	Resurs solig'i	Mineral resurslar (xom neft, tabiiy gaz, ko'mir, boshqa metall rudalari, qora metall rudalari va rangli metall rudalari); Tuz (qattiq va suyuq tuz)
2	Iste'mol solig'i	Benzin, dizel yoqilg'isi, aviatsiya kerosini, avtomobil shinalar, mototsikllar, avtomobillar, yaxtalar, bir martalik yog'och tayoqchalar va tamaki, vino va suyuqlik
3	Shahar qurilishi va texnik xizmatlar uchun soliq	Qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan narsalar (QQS), iste'mol solig'i va / yoki biznes solig'i
4	Shahar va shahar yerlaridan foydalanganlik uchun	Davlatga tegishli bo'lgan yerlar yoki egalik qilinadigan yerlar
5	Yerdan unumli foydalanish uchun soliq	30% dan 60% gacha bo'lgan progressiv stavkalar bo'yicha ko'chmas mulk o'eratsiyalaridan olingan ma'lum daromadlar uchun undiriladi
6	Avto Transport vositalarini harid qilganlik uchun soliq	150 mililitrdan ortiq gaz sarflaydigan har qanday xarid, sovg'a, almashinuv va boshqa holatlarda undiriladi
7	Transport vositalari va kemalar solig'i	XXR doirasidagi barcha Transport vositalari va kemalardan olinadigan soliq. Odatda o'z vazniga qarab belgilangan miqdordagi soliq solinadi.
8	Kemalarning yuk sig'imiga soliqlar	Kemalardan olinadigan yuk solig'i XXR hududidagi portga xorijdan kiradigan har qanday kemadan olinadi
9	Qishloq xo'jaligi yerlarini o'zlashtirganlik uchun soliq	XXR doirasida haydaladigan yerlarda binolar, inshootlar quradigan yoki qishloq xo'jaligidan tashqari rivojlanish bilan shug'ullanadigan kompaniyalar va jismoniy shaxslardan olinadi.

10	Atrof muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi soliq	Soliq solinadigan ifloslantiruvchi moddalarni (ya'ni havoni ifloslantiruvchi moddalar, suvni ifloslantiruvchi moddalar,) to'g'ridan-to'g'ri Xitoy hududida chiqaradigan korxonalaridan olinadi.
11	Tamaki solig'i	XXR hududida tamaki barglarini sotib olgan soliq to'lovchilardan undiriladi.

Manba: Muallif tomonidan "The People's Republic of China Tax Facts and Figures 2019" jurnali ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

Ekologik soliqlar joriy etilgandan keyin ham Xitoy Xalq Respublikasi iqtisodiyoti o'sishda davom etmoqda, mos ravishda ekologik soliqqa tortishni ham Xitoy hukumati isloh etib, ularning ta'sirini kuchaytirmoqda. Boshqa rivojlangan davlatlar tajribasida ham shuni kuzatishimiz mumkin ya'ni, birinchi navbatda ekologik harakterga ega bo'lgan soliqlarni joriy etib, keyinchalik butun soliq siyosatini "Green tax" (Yashil soliq) siyosatiga aylantirish orqali, atrof-muhit himoyasi va davlat daromadlarining barqarorligini parallel ravishda ta'minlamoqdalar.

Ekologik soliqlarni joriy etib o'z soliq siyosatida ustuvorlik berayotgan davlatlar o'z tanlovlaridan voz kechishmagan aksincha ular bu siyosatni yanada barqarorlashtirish va yuqori cho'qqilarga olib chiqish uchun turli chora-tadbirlar ishlab chiqmoqdalar. Ekologik soliqlar mamlakat byudjeti tushumlarini keskin oshirmasada uning o'sishini to'xtatib qo'ymasligi nazariyalariga yana bir tasdiq deb hisoblasak bo'ladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda soliqqa tortishning ekologik yo'naltirilganligini yanada rivojlantirish uchun samaradorligi amalda isbotlangan ilg'or xorijiy tajribalardan andoza olgan holda hamda yurtimizdagi iqtisodiy va ijtimoiy holatlarni inobatga olib, bosqichma-bosqich ekologik harakterga ega bo'lgan soliqlarni joriy etish zarur deb hisoblaymiz.

Rivojlangan va iqtisodiy jihatdan barqaror davlatlarning ekologik soliqqa tortish siyosatida sinalgan ekologik toza texnologiyalardan foydalanishga undovchi va tabiiy atrof muhitga zararli chiqindi hamda moddalarni qisqartiruvchi harakteriga ega bo'lgan soliq imtiyozlarini soliq to'lovchilarga rag'bat tariqasida joriy etishimiz va takomillashtirishimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shodimetov Y.Sh. Sog'lom turmush tarzi: ijtimoiy-gigiyenik va ekologik muammolar. - T.: Ibn Sino, 1991 31-sahifa;
2. "The People's Republic of China Tax Facts and Figures 2019" jurnali;

3. Ogli, T. B. Q. (2021). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(1), 246-250.
4. Boburmirzo, K., & Boburjon, T. (2022). EXCHANGE RATE INFLUENCE ON FOREIGN DIRECT INVESTMENT: EMPIRICAL EVIDENCE FROM CIS COUNTRIES. *International Journal Of Management And Economics Fundamental*, 2(04), 19-28.;
5. Turanboyev, B., Abdupattayev, A., & Abdullaev, A. (2023). INFLYATSIYANING QIMMATLI QOG'OZLAR DAROMADIGA TA'SIRI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 2(2), 88-100.
6. Qodirjon o'g'li, B. T., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). FISCAL POLICY AS THE PRIMARY TOOL TO AFFECT THE STRENGTH OF THE CAPITAL MARKETS. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 8, 32-35;

SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Turanboyev Boburjon Qodirjon o'g'li

Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrasi o'qituvchisi.

e-mail: boburturonboyev@gmail.com

Annotatsiya: To'laqonli soliq siyosati olib boradigan xar qanday davlatda tabiatdan oqilona foydalanishni soliq vositasida tartibga solish muommosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, soliq siyosatini yuritishda davlat fiskal, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlar qatorida ekologik maqsadni xam ko'zlaydi. O'zbekiston soliq tizimini tubdan islox qilishda soliqqa tortishning ekologik yo'naltirilganligini kuchaytirish lozim.

Kalit so'zlar: ekologik soliqlar, resurs soliqlari, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, soliq stavkasi, soliq tushumi.

Kirish.

Respublikada keskin bo'lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilardir (Ziyomammedov 1997):

1. Yirik hududiy – sanoat majmualari joylashgan rayonlarda ya'ni Angiren-Olmaliq Chirchiqlarda, Farg'ona-Marg'ilonda, Navoiy va boshqa rayonlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari. Bu rayonlarda ijtimoiy-ekotizim holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlarida chiqayotgan turli-xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatini buzilishiga olib kelmoqda.

2. Agrosanoat majmuyidagi ekologik muammolar.

3. Tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari pestisedlar va mineral o'g'itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.

Ushbu muammolarni hal etish chora tadbirlarining ta'sirchanligini oshirish uchun ko'rilayotgan ko'plab chora tadbirlardan tashqari, albatta soliq vositasidan samarali foydalanish dolzarbdir.

Yurtimizda ekologik harakteriga ega bo'lgan soliqlardan faqat resurs soliqlarining mavjudligi va atrof-muhitga nisbatan ishlab-chiqarish sanoati faoliyatida salbiy tahdidning yuqoriligini inobatga olsak, Ekologik soliqlarni rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqot qilish dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu ilmiy tadqiqotimizda asosan, biz ilmiy mushohada, abstraksiya, mantiqiy, qiyosiy, asosli tahlil, dinamik o'zgarish va tasviriy statistika ilmiy uslublaridan foydalandik.

Tasviriy statistikada ma'lumotlar yanada ixcham ko'rinishga keltirish uchun umumlashtiriladi va asosan jadval hamda grafiklar ko'rinishlarida bo'ladi. Ushbu usul mavzuni bayon etish hamda to'plangan ma'lumotlarni tushunarli va sodda qilib taqdim etish uchun qulaydir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy sayti (soliq.uz) va Davlat statistika qo'mitasining rasmiy saytidan (stat.uz) byudjetga soliq tushumlari, resurs soliqlarining byudjetdagi ulushi va ekologik zaralanish to'g'risidagi ma'lumotlarni olinib, jadval va grafiklar ko'rinishida foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Niyazmetov (2018) fikrlariga ko'ra, to'laqonli soliq siyosati olib boradigan xar qanday davlatda tabiatdan oqilona foydalanishni soliq vositasida tartibga solish muommosi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Zero, soliq siyosatini yuritishda davlat fiskal, iqtisodiy, ijtimoiy maqsadlar qatorida ekologik maqsadni xam ko'zlaydi.

O'zbekiston soliq tizimini tubdan islox qilishda soliqqa tortishning ekologik yo'naltirilganligini kuchaytirish lozim. Shu sababli, suvdan oqilona va samarali foydalanishni nazoratga olish xamda suv solig'ining fiskal ahamiyatini oshirish maqsadida, uni suvdan foydalanuvchi barcha tadbirkorlik sub'ektlariga tatbiq etish va soliq stavkasini oshirib borish zarur.

O'zbekistonda ekologik soliqqa tortishni kuchaytirish uchun, ayrim soliq turlarini ekologik soliqlar bilan almashtirish takliflari xam berilagan. Misol uchun, Malikovning (2002) qayd etishiga ko'ra, soliq tizimining zamonaviy konseptsiyalarida tabiiy resurs soliqlari davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy maydonga chiqadi. "Foyda yoki daromaddan olinadigan soliqni keskin kamaytirish yoki ularni umuman bekor qilish, bu soliqlarni mol-mulkdan, yerdan va resurslardan olinadigan soliqlar va to'lovlar bilan almashtirish" yoki "...foyda solig'ini pasaytirish va ularni tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun olinadigan renta to'lovlari bilan almashtirish, sanoatni qazib chiqaruvchi tarmoqlarini yuqori darajada soliqqa tortish" masalalariga e'tibor qaratmoqlik zarurdir.

Yuridik shaxslar – O'zbekiston respublikasining rezidentlari xamda faoliyatini doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari, yer osti va yer usti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslaridan foydalanishgan taqdirda suv solig'i to'lashliklari Soliq kodelsidan belgilab qo'yilgan. Bunda, suv resurslarining yer usti va yer osti manbalaridan olingan suv hajmi o'lhagich asboblari ko'rsatkichi asosida aniqlanadi. Suvdan o'lhagich asboblarsiz foydalanilgan taqdirda, uning hajmi suv obhektlaridan suv olish limitlaridan, suv iste'molining texnologik va sanitariya normalaridan yoki mahlumotlarning to'g'riligini tahminlovchi boshqa usullardan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Suv resurslaridan foydalanish hisobini yuritish talablari to'xtaladigan bo'lsak, yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalanilgan suv resurslari hajmlari hisobi alohida-alohida

yuritiladi. Ikkita manba - yer usti va yer ostidan suv keladigan vodoprovod tarmog'idagi suvdan foydalanilgan taqdirda, soliq solinadigan baza manbaning har bir turi bo'yicha alohida-alohida aniqlanadi. Binolarning bir qismi, alohida joylar ijaraga topshirilganda (olinganda) soliq solinadigan baza suv yetkazib beruvchi yuridik shaxs bilan shartnoma tuzgan ijaraga beruvchi (ijaraga oluvchi) tomonidan aniqlanadi.

Suv solig'i bo'yicha ishlatilgan suv hajmini aniqlash ham biroz murakkab, uning aniq xisobini olishda bir qator muommolar mavjud, xususan Respublikamizda yer usti va yer osti manbalarining xisobini olish talab darajasida emas. Eng avvalo foydalanilgan suv xisobini olishning zamonaviy uslublarini o'rganib joriy etish talab etiladi.

Xulosa va takliflar.

Respublikamiz davlat byudjeti daromadlarida soliq tushumlari tarkibida tabiiy resurs soliqlari, ayniqsa atrof tabiiy muxitni ifloslantirish bilan bog'liq soliq'larga ustuvor ahamiyat qaratilishi, ularni davlat byudjeti daromadlarini shakillantirishdagi ahamiyatini oshirishga qaratilgan islohotlar mamlakat soliq tizimini takomillashtirishdagi ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shodimetov Y.Sh. Sog'lom turmush tarzi: ijtimoiy-gigiyenik va ekologik muammolar. - T.: Ibn Sino, 1991 31-sahifa;
2. Ziyomammedov B. Ekologiya va ma'naviyat. - T.: Mehnat. 1997 43-sahifa;
3. Malikov T.S. Soliqlar va soliqqa tortishning dolzarb masalalari. -T.: Adliya. 2002. 116-bet
4. Ниязметов И., (2018) “Солиққа тортиш механизмларини такомиллаштириш орқали солиқ тизими барқарорлигини таъминлаш” докторлик диссертацияси.
5. Ogli, T. B. Q. (2021). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTLARNING TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHLARIDA SOLIQLARNING TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(1), 246-250.
6. Boburmirzo, K., & Boburjon, T. (2022). EXCHANGE RATE INFLUENCE ON FOREIGN DIRECT INVESTMENT: EMPIRICAL EVIDENCE FROM CIS COUNTRIES. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 2(04), 19-28.;
7. Turanboyev, B., Abdupattayev, A., & Abdullaev, A. (2023). INFLYATSIYANING QIMMATLI QOG'OZLAR DAROMADIGA TA'SIRI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 2(2), 88-100.
8. Qodirjon o'g'li, B. T., & Nazarali o'g'li, M. S. (2023). FISCAL POLICY AS THE PRIMARY TOOL TO AFFECT THE STRENGTH OF THE CAPITAL MARKETS. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8, 32-35.

ONA TILI VA O'QISH SAVONXONLIGIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Uzoqov Asomiddin Shoymardon o'g'li
Termiz davlat pedagogika instituti talabasi
BT 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Xurramova Sanobar

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ona tili va o'qish savonxonligida sinfdan tashqari ishlar fanidan o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini boshlang'ich sinfdan shakllantirish, darsda turli metodlardan foydalanish haqida alohida to'xtalib o'tamiz.

Kalit so'zlar: nutq, o'quvchilar, til, metodlar, lug'at boyligi, rivojlantirish, BBB metodi.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish, nutq so'zlar va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Shu jumladan ta'lim berishda kommunikativ yondashuvga asoslaniladi, ya'ni tilning muloqot vazifasi birlamchidir. Shuningdek faoliyatga yo'nalgan yondashuv, ongli yondashuv, kashfiyotchilik yondashuvi farqli va tanqidiy yondashuv kabilar e'tiborda bo'lishi lozim. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini mustaqil fikrlash darajasi va nutqini o'stirishning zaruriy omillaridan biri lug'atlar ustida ishlashdir. Agar o'quvchi va uning tildan bajargan ishlari ko'zda tutilsa, nutq o'stirish deganda tilni har tomonlama (talaffuzi, lug'ati, sintaktik qurilishini, bog'lanishli nutqni) faol amaliy o'zlashtirish tushuniladi.

Agar o'qituvchi nazarda tutilsa, nutqni rivojlantirish deganda, o'quvchilarning talaffuzi, lug'at boyligi, sintaktik qurilishi va bog'lanishli nutqni faol egallashlariga yordam beradigan metod va usullarni qo'llash tushuniladi. Shuning uchun ham milliy o'quv dasturiga ko'ra o'quvchilarda nutqiy kompetensiyani shakllantirishga e'tibor beriladi va sinflar kesimida amalga oshiriladi.

Tilning rivojlanishi deganda biz lug'at boyligimizning oshishi, so'zlarni o'z o'rnida qo'llay olishimiz kabi tushunchalar tushuniladi. „Amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi har bir fuqaroning shaxs sifatida shakllanishi uchun, o'z qobiliyatini, o'z talantini ishga solib hayotini yanada yaxshilanishi, ma'nan boyitishi uchun barcha imkoniyatni yaratib berishdan iboratdir”

Birinchi prezidentimiz I.A.Karimovning bu so'zlaridan mustaqillikka erishganimizdan buyon yoshlarga qanday e'tibor berilayotganligi qanday imkoniyatlar eshigi ochib berilayotganligini ko'rsak bo'ladi. Shuningdek boshlang'ich sinflarda

qo'llaydigan metodlarga alohida to'xtalib o'tamiz. Darsning innovatsion texnologiyalar asosida olib borilishi dars samaradorligini yanada oshiradi. Shuningdek, bir qator metodlar, jumladan:

- “Aqliy hujum” metodi;
- “Kalaster” metodi;
- “Ven diagrammasi” metodi;
- “Qora quti” metodi;
- “B B B” metodi

Klaster - (tutam, bog'lam) - axborot xaritasini tuzish yo'li - barcha tuzilmaning mohiyatini markazlashtirish va aniqlash uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'oyalarni yig'ish.

“Klaster” metodi yordamida o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash quyidagicha amalga oshiriladi:

Ta'lim oluvchilar guruhlarga bo'linadilar va ularga belgilangan vaqt ichida mavzu bo'yicha qanday tushunchalarni o'zlashtirgan bo'lsalar, ularni qog'ozga yozish vazifasi topshiriladi.

Vazifani bajarish jarayonida fikrlarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga ahamiyat bermaslik, nimani o'ylagan bo'lsa, shuni yozib berish talab etiladi.

Yozuvning texnik (orfografik, mantiqiy va h.k.) jihatlariga e'tibor berilmaydi. Fikrlar tugagandan keyin guruh a'zolari tushunchalarni mantiqiy jihatdan bir-birlariga bog'lab chiqadilar.

Ushbu metodlar boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil ravishda bfiukrlay olish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu metodlarni biz pedagoglar maktabda qo'llasak darsimiz ancha samarali va namunali tarz o'tadi. Ushbu metodlardan “BBB” (Bilaman –Bilib oldim –Bilishni xohlayman) metodini oladigan bo'lsak, o'quvchilar egallagan bilimlarini hisobga olgan holda ularni kengaytirish va chuqurlashtirishda qo'llaniladi. Bu metod Blum taksonomiyasi deb ham yuritiladi. Usul va metodlar o'quv jarayoni sifatini hal qilib beradi. O'quvchilarning mavzuni sifatli va namunali tarzda o'zlashtirishida, fikrlash qobiliyatining rivojlanishiga ham ta'sirini o'tkazmay qo'ymaydi.

Xulosa qilib aytganda, hozirgi zamon o'qituvchidan ijodkorlikni, o'z fikrini o'quvchilarga yetkaza olishni talab qiladi. Unda pedagogik tajribaning yuqori bo'lishi, muloqot madaniyati, nutq madaniyatining shakllangan bo'lishi, o'z-o'zini boshqarish qobiliyatining mavjudligi, bilim, ko'nikma va malakaning namoyon bo'lishi, uning pedagogik mahoratga ega ekanligini ko'rsatadi. Zero, darsning samaradorligi o'qituvchining mahoratiga bog'liqdir. malakaning bo'lishi, uning pedagogik mahoratga ega ekanligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A'zam Xoliqov „Pedagogik mahorat” „Tafakkur-Bo‘stoni” Toshkent- 2011, 124-bet
2. Karimov I.A. Barkamol Avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori Toshkent, Sharq nashriyoti-matbaa konserni 1997 4. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash (Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassisleri uchun metodik qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. Toshkent, 2019-yil, 92 bet. 16-bet.
3. Ona tili va o‘qish savodxonligi [Matn]: 1-sinf o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llanma / I. Azimova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 128 b.
4. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism [Matn]: darslik 1-sinf uchun / K. Mavlonova [va boshq.]. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021. – 104 b.
5. “Ona tili va o‘qish savodxonligi”.1-qism B-37: darslik 2-sinfi uchun/ Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Quronov, Shokir Tursun. - Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021.- 118b.

TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

№	The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusi	Page / Страница / Sahifa
1	YAPON TILI	3
2	РАХИТ У ДЕТЕЙ	7
3	XORAZM MILLIY TAOMLARI	11
4	АСТРОЛОГИЧЕСКИЕ И МЕТЕОРОЛОГИЧЕСКИЕ ПРИМЕТЫ О ПОГОДЕ	14
5	INTERYER DIZAYNI USLUBLARI	17
6	MARKAZIY OSIYODA MUSIQANING SHAKLLANIB KELISHI	21
7	«ФОРМИРОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНОЙ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ЗАТРАТАМИ НА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ»	24
8	ПРОБЛЕМА САМОРЕАЛИЗАЦИИ СТУДЕНТОВ В ВУЗЕ	30
9	G'ULOM ZAFARIY SHE'RIYATIDA YOSHLAR MASALASI	37
10	OILA MUSTAHKAMLIGIDA OTA-ONANING ADOLAT TAMOYILLARI XUSUSIDA	40
11	МАҚСУД ШАЙХЗОДА ВА БОЛАЛАР АДАБИЁТИ (1908-1967)	43
12	ENGLISH ACCENT PROBLEMS AND SOLUTIONS FOR LANGUAGE LEARNERS	45
13	AMIYAT HAYOTIDA TADBIRKORLIK FAOLIYATINING O'RNI	48
14	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YO'L HARAKATI QOIDALARI	52
15	INCURABLE DISEASES	57
16	ILM FAN VA TABIAT MARKAZIDA AMALIY TAJRIBALAR O'TKAZISHNI TASHKIL ETISH	62
17	TECHNIQUES USED FOR READING SKILL DEVELOPMENT	67
18	ABDURAUFI FITRAT VA HUSAYN JOVID-JADID ADABIYOTINING YIRIK VAKILI	70
19	REANIMATSIYA VA INTENSIV TERAPIYA HAQIDA TUSHUNCHA	74
20	DEVELOPING STUDENTS' INTERCULTURAL COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ENGLISH THROUGH SOCIAL NETWORK	78
21	OZIQ-OVQAT TARKIBIDA SUMBULA O'SIMLIGINING AHAMIYATI	83
22	HOSILANING FIZIKADA QO'LLANILISHI	86
23	INTEGRALNING FIZIKAGA TADBIQI	89
24	TEZLIKKA OID MASALALAR	91
25	BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI AHAMIYATI	94
26	IMOM AT-TERMIZIYNING HAYOTI VA MEROSI	98
27	O'ZGARUVCHAN TOKLAR ZANJIRINING ASOSIY TENGLAMASIGA OID SHARHLAR	104
28	ENG KATTA MEROS BU- YAXSHI TARBIYA	107

29	INGLIZ TILINI O'QITISHDA LOYIHAGA ASOSLANGAN YONDASHUVNING AHAMIYATI	110
30	GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MA'NAVIYATGA QARSHI TAHDIDLAR	113
31	QASHQADARYO VILOYATI LANDSHAFTNING O'ZIGA XOSLIGI HAMDA UNING XARITADA NAMOYON BO'LISHI	116
32	IJODIY RIVOJLANISH FAOLIYATI ORQALI BOLALARDA BADIY IJODIY QOBILIYATLARNI SHAKILLANTIRISH	119
33	ANALYSIS OF MAIN THEMES IN SHAKESPEARE'S TRAGEDY HAMLET	123
34	SARCASM AND IRONY IN ENGLISH AND UZBEK LITERATURE	128
35	ENGAGING PUPILS TO SPEAK IN ENGLISH DURING THE LESSON	133
36	GOOGLE SINFXONASIDAN FOYDALANIB TA'LIMNI O'RGANISH	136
37	ГРАММАТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РУССКОГО ЯЗЫКА: АНАЛИЗ И ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ РАСПРОСТРАНЕННЫХ ОШИБОК	142
38	SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO'NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI	145
39	SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI	151
40	ONA TILI VA O'QISH SAVONXONLIGIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	154

***Напоминание!** — Образование наука и инновационные идеи в мире || Авторы несут персональную ответственность за правильность цифр и данных в статьях и планах занятий, включенных в мировой научно-методический журнал, и за правильность приведенных цитат.*


**Главный редактор:
Семёнов Владимир Львович**

**Помощник редактора:
Абдурахманов Бобуржон**

**Подготовитель к публикации:
Халиков Тохирджон Шавкатжонович**

— Образование наука и инновационные идеи в мире всемирный научно-методический журнал, 2023-г.





OPEN  ACCESS

